

# O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



# O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

„O'qituvchi“





1991-yilda O'zbekistonimiz mustaqil Davlat deb e'lom qilindi. Islom Karimov mustaqil davlatimizning Prezidenti etib saylandi. Yurtboshimiz eng avvalo yoshlarni sog'lom, kuchli, dovyurak qilib tarbiyalash zarurligini aytdilar. Bunga erishish uchun ko'plab stadion, sport maydonlari qurildi. Prezidentimiz takliflari va tashabbuslari bilan yangidan-yangi musobaqalar tashkil etildi. Natijada sportchilarimiz, championlarimiz ko'paydi.

Ana shu xizmatlari uchun Prezidentimiz 1996-yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Oltin Olimpiya ordeni bilan mukofotlandi.








„Hech bir narsa mamlakatni sport kabi  
tezda dunyoga mashhur qila olmaydi“.

„Sport odamni mard, matonatli,  
bardoshli qilib tarbiyalaydi“.

„Sportchi maydonga o‘z yurti, o‘z xalqi  
nomidan tushadi. Uning g‘alabasi sharafiga  
Davlat madhiyasi yangraydi, mamlakat  
bayrog‘i ko‘tariladi. Har bir mamlakat,  
millat o‘z championlari bilan faxrlanadi,  
g‘ururlanadi. Shuning uchun ham ular  
Vatanning iftixorlari hisoblanishadi“.

*Islom Karimov*



Prezidentimiz tashabbusi bilan 1998-yilda „O'zbekiston Iftixori“ faxriy unvoni ta'sis etildi. Bu unvon Jahon championatlari, Olimpiya o'yinlarida g'olib chiqqan eng mashhur sportchilarga beriladi.

Faxriy unvonning ko'krakka taqiladigan nishoni oltin va kumushdan tayyorlangan.

Bu faxriy unvon bilan birinchi bo'-lib sakkiz nafar sportchimiz taqdirlangan.

Mana ular:

- **Abdullayev Muhammadqodir**
- **Grigoryan Artur**
- **Zokirov Lazizbek**
- **Tulyakov Timur**
- **Xo'jayev Shuhrat**
- **Chagayev Ruslan**
- **Cheryazova Lina**
- **Yusupov Olmos**



# O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'llanma sifatida tavsiya etgan.

Toshkent · „O'qituvchi“ · 1999

## *Aziz bolajonlar!*

*Siz hayot bag'riga endigina qadam qo'yib ke-layapsiz. Ko'nglingiz olam-olam orzu-havaslarga to'la. Yillar o'tadi, orzularingiz ushaladi. Sizlar turli kasb egalari bo'lib, ona-Vatanga xizmat qilasizlar. Bir narsani hamisha yodda tuting: a'lo o'qigan, irodali, qo'rmas va botir o'g'il-qizlargina Vatanning asl farzandlari bo'la oladi.*

*Xo'sh, qanday qilib bunga erishish mumkin? Buning uchun, aziz bolajonlar, avvalo sport bilan do'stlashishni maslahat beramiz. Chunki, sport Sizning mushaklaringizni kuch-quvvatga to'ldiradi, tanangizni sog'lom qiladi. Sog'tanda esa sog'lom aql bo'ladi.*

*Sportning har bir turi o'ziga xos kurashdan iborat. Bu kurashlardan cho'chimagan o'g'il-qizlar irodali, qo'rmas va botir bo'lib voyaga yetadi.*

*Aslida championlar kimlar? Ularni nega yulduzga qiyoslashadi? Buning qanday sir-sinoati bor?*

*Championlar aslida ham yulduzga o'xshaydi. Chunki ular xalqimizning ichida yulduz singari porlab turishadi. Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkaziladigan katta-katta sport musobaqalarida ular g'olib bo'lishgan. Ularning g'alabalari sharafiga Vatanimiz bayrog'i ko'tarilgan, madhiyamiz yangragan.*



9 13869



## O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi,  
Abdulla Oripov so'zi

*Serquyosh, hur o'l kam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

*Naqarot:*

*Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamон,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

*Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona-yurt, mangu bo'l obod!*

*Naqarot:*

*Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamон,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

## ***Qadrli bolajonlar!***

*Siz sevgan championlar ham bir paytlar yosh bola bo'lishgan. Ular ayni sizning yoshingizda sport bilan mustahkam do'st tutinishgan, o'zlarini tinimsiz chiniqtirib borishgan. Bugun qarabsizki, ular Champion!*

*Champion bo'lish Sizga ham, tabiiyki, yoqadi. Ertangi kunning championlari Sizlarning orangizdan chiqadi albatta.*

*Ushbu kitobda 22 nafar mashhur sportchimiz haqida hikoya qilingan. Siz kitobdan ular qanday qilib Champion bo'lishgani, ya'ni yulduzga aylanishganini bilib olasiz. O'ylaymizki, bu kitobni o'qib chiqqach sportga bo'lgan mehr-muhabbingiz yanada ortadi, u bilan astoydil shug'ullanishga kirishasiz.*

*Biz esa bu yo'lda Sizga omad tilab qolamiz!*



Musobaqalarda g'olib chiqqan sportchilar oltin medal bilan taqdirlanadi. Ularning g'alabasi sharafiga Vatan bayrog'i ko'tarilib, davlat madhiyasi yangraydi. Ikkinci va uchinchi o'rinnlarni egallaganlarga kumush va bronza medali berilib, Vatan bayrog'i ko'tariladi.



# MUHAMMADQODIR ABDULLAYEV



1973-yil 11-noyabrda Andijon viloyatining Oltinko'l tumanida tug'ilgan. 13 yoshidan boks bilan shug'ullanigan. O'zbekistonning ko'p karra championi. 1996-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining Atlanta shahrida o'tgan Olimpiada o'yinlari qatnashchisi.

Jahon Kubogi musobaqalari g'olibи.

Tailand poytaxti Bangkokda o'tgan Osiyo o'yinlarida oltin medalni qo'lg'a kiritgan. U sportdagi katta yutuqlari uchun „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



13





## **ORZUSI–OLIMPIYA CHEMPIONI BO'LISH**

Bu voqealarda 1974-yilda sodir bo'lgan edi. O'shanda Kubaning poytaxti Gavanada boks bo'yicha Jahon championati borardi. Hamyurtimiz Rufat Risqiyev matonat ko'rsatib, championatning oltin medalini qo'lga kiritdi. Uning g'alabasi O'zbekistonda duvduv gap bo'lib ketdi. Chunki u respublikamiz tarixida Jahon championi bo'lgan birinchi bokschi edi. Rufatning g'alabasi haqida katta-yu kichik faxrlanib gapirardi.

O'sha yili tug'ilgan ko'p bolalarga ota-onalari yaxshi niyat bilan Rufat deb ism qo'yishgan edi. Qanchalab ota-onalar esa bolalarini yetaklab, boks maktablariga olib borishdi. Har bir ota-ona o'g'illari Rufatdek mard, matonatli va mashhur bokschi bo'lishini orzu qilardi.


Muhammadqodir Abdullayev esa Rufat jahon championi bo'lishidan bir yil oldin tug'ilgan edi. Uning otasi Yoqubjon aka oddiy shofyor. Lekin sportning ishqibozi. Mard, halol odamlarni yaxshi ko'radi. Rufat champion bo'lganda xuddi o'zining tug'ishgan ukasi champion bo'lgandek quvongan edi.






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

15





16

## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

Endigina bir yoshga to'layotgan o'g'li Muhammadqodir xuddi Rufatdek mashhur bokschi bo'lishini orzu qilgan edi.

Muhammadqodir o'n uch yoshga to'lganida otasi „Bismillohir rahmonir rohiym“ deya o'g'lini yetaklab, Andijon shahriga yo'l oldi. Ota-bola to'g'ri o'sha paytda „Spartak“ deb ataladigan stadionga kelishdi. Yoqubjon aka bu yerdagi boks maktabi murabbiysi Durdiali O'zg'unovga maqsadini aytdi.

Kunlar, oylar bir-birini quvlab o'taverdi. Muhammadqodir kamtarligi, odobliligi, tirishqoqligi bilan boshqalardan ajralib turardi. U topshiriqlarini bekam-ko'st bajarishga intilardi.


Odatda murabbiylar shogirdlariga ko'rsatmalar bergach, ular mashqlarni qanday bajarishlarini kuzatib turishadi. Bir kuni Durdiali aka Muhammadqodirga navbatdagi ko'rsatmalarni berdi-da zaldan tashqariga chiqib ketdi. Birozdan so'ng qaytib kelib, qiya ochiq eshikdan Muhammadqodirni kuzata boshladi. Shogirdi astoydil mashq qilayotganini ko'rib quvondi. Chunki ba'zi bolalar murabbiy tepasida kuzatib turganida harakat qilishadi, murabbiy chetga burilishi bilan mashqni to'xtatib, dam olib o'tirishadi. Bunday bolalardan

17



913869





yaxshi sportchi chiqishi qiyin albatta.

Yoqubjon aka tez-tez sport mакtabiga borib o‘g‘idan xabar olib turardi. O‘g‘li qachon musobaqaga qo‘yilishini murabbiydan so‘rardи. „Hali pishigani yo‘q, vaqtি keladi, qo‘yamiz“,—derdi murabbiysi. „Ishqilib undan bokschi chiqarmikan?“,—deya o‘ylanib uygа qaytardi otasi.

Bir kuni murabbi Yoqubjon akaga shunday dedi:

—Bilasizmi, g‘alabaning bir foizi iste’dodga bog‘liq bo‘lsa, to‘qson foizi mehnatga bog‘liq. O‘g‘lingiz mehnatkash, odobli bola ekan. Xudo xohlasa, yaxshi bokschi bo‘ladi.

Oradan bir yil o‘tar-o‘tmas Muhammadqodir musobaqalarda qatnasha boshladi. Goh yutar, gohida yutqazardi. Yutqazgan paytlari kechalari uxlamay o‘ylab chiqardi. Keyingi gal uchrashganda uni baribir yutaman, deb ichida ahd qilardi.

Mashqlarni jon-jahdi bilan o‘tkazardi. Vaqt o‘tgan sari g‘alabalari ko‘paya boshladi.

Bir kuni uygа musobaqadan ko‘zi ko‘karib, yonog‘i shishgan holda kirib keldi.

—Jon bolam, yolg‘iz o‘g‘limizsiz,—dedi onasi unga.—Qo‘ying shu boksingizni. Undan ko‘ra biror boshqa hunarni o‘rganining.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

Yoqubjon aka bu gapni eshitib xotiniga tasallি berdi:

—To'g'ri, o'g'limiz yolg'iz. Lekin ana shu yolg'iz o'g'limiz o'nta o'g'ilning o'rmini bosadigan kuchli, mard bo'lib o'sishi kerak. Qiyinchilikni ko'rsa irodasi mustahkam bo'ladi.

Ko'п emas, oz emas, uch yil orasida Muhammadqodirni butun viloyatda taniydiган bo'lib qolishdi. Ko'rinishidan bo'sh-bayovgina bo'lgan bu yigitcha ringda hammani hayron qoldira boshladи. Unga respublika terma jamoasi murabbiylari nazari tushib qoldi. Uni respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarga taklif eta boshlashdi.

Muhammadqodir Respublika terma jamoasiga qabul qilingach, unga Mars Qo'chqorov va Aleksandr Razmaxovlar murabbiylik qila boshladilar. Yangi murabbiylar unga talabchanlikni yanada oshirishdi.

Muhammadqodir hech qachon charchadim deb nolimasdi. Qunt va chidam bilan mashqlarni davom ettiraverdi. Mehnat qilgan murodiga yetadi, deganlaridek andijonlik yosh sportchi Osiyo va Jahon championatlarida qatnasha boshladи. U bunday musobaqalarda goh ikkinchi, goh uchinchi o'rnlarni olardi. Birinchi bo'lishga har doim nimadir kamlik qilardi.



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

„1997-yilda Ruslan Chagayev jahon championi bo'ldi“, - deydi Mars Qo'chqorov. Ana shundan so'ng Muhammadqodir mashqlarga yanada qattiq kirishdi. Hammadan ko'p mashq qiladigan bo'ldi. Bir yil orasida u dunyoning eng kuchli bokschilaridan biri deb tan olindi.

U 1998-yilda jahon Kubogi musobaqasida birinchi o'rinni egalladi. Mutaxassislar Muhammadqodirni „Eng yaxshi bokschi“ degan maxsus sovrin bilan taqdirlashdi. O'sha yili u Tailand degan mamlakatda o'tgan Osiyo o'yinlarida ham g'olib chiqdi. Muhammadqodirning g'alabalari sharafiga dunyoning turli shaharlarida davlatimiz madhiyasi yangray boshladi. Endi Muhammadqodir bilan nafaqat ota-onasi, mahallasi, balki butun Respublikamiz xalqi faxrlanadigan bo'ldi.

Muhammadqodir esa ilgarigidek kamtar va odobli. O'zini sira katta tutmaydi. Hammaga qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beradi. U biror kishiga qo'pol gapirgani yoki maqtanganini hech kim ko'rmagan. Shuning uchun do'stlari ham uni juda hurmat qilishadi.

Tailanddan kelgach, jurnalistlar undan: „Sport-dagi eng katta orzuingiz nima?“—deb so'rashdi.





Bu savolga u shunday javob qildi:

—Shu paytgacha respublikamizdan hech kim boks bo'yicha Olimpiya chempioni bo'lmagan. Maqsadim—yurtimizga Olimpiya o'yinlarining oltin medalini olib berish.

Xalqimizda intilganga tole yor, degan maqol bor. Muhammadqodir intiluvchan, bardoshli, halol yigit. Bunday yigitlar albatta o'z orzusiga yetadi.

## **BILIB QO'YGAN YAXSHI**

 *Boks eng qadimgi sport turlaridan hisoblanadi. Boks birinchi bo'lib Angliyada paydo bo'lgan. Bokschilar ilgari qo'lqopsiz jang qilishgan. Keyinchalik jarohatlarning oldini olish uchun qo'liga latta bog'lab kuch sinashgan. Bora-bora qo'lqop o'ylab topilgan.*

## **O'ZBEKISTON IFTIXORLARI**





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport sport•sport•sport•sport•sport

### OLIMPIYA O'YINLARI TARIXIDAN



Qadimgi Gretsiyaning janub tomonida tabiat go'zal joy bo'lgan. Bu joy Olimpiya deb atalgan. Juda qadim-qadim zamonda bu yerda ko'plab qasrlar, stadionlar, sportchilar shug'ullanadigan va yashaydigan binalar qurilgan.

Bu o'lkaga qo'shni mamlakatlar tez-tez hujum qilib turishgan. Urushlardan odamlar juda charchashgan. Kunlarning birida qo'shni podsho bu o'lkaga yurish boshlaydi. Bundan xabar topgan Olimpiya o'lkasi podshosi urushning oldini olish uchun ko'p o'ylaydi. O'ylab-o'ylab bir taklifni o'rtaga tashlaydi. Bu taklif urush ochgan podshoni ham qiziqtirib qoladi.

Bilasizmi, u qanday taklif edi? Olimpiya o'lkasi podshosi shunday degan edi: Qon to'kishni to'xtataylik, askarlarimiz-

sport•sport sport • sport•sport•sport•sport





ning kuchi va epchilligini urushda emas, balki musobaqalarda sinab ko'raylik.

Shunday qilib, ikki o'ttada tinchlik haqida sulh tuziladi. Olimpiya degan joy sport musobaqlari maydoniga aylanadi.

Bu musobaqlar Olimpiya degan joy nomi bilan bog'liq bo'lgani uchun Olimpiya o'yinlari deb ataladigan bo'ldi.

Olimpiya o'yinlari paytida urushlar to'xtatilgan. Urushayotgan mamlakat sportchisi musobaqalarga qo'yilmagan.

\*\*\*

Sportchilar musobaqa davomida halol kurashishga, hakamlar esa halol bo'lishga qasamyod qilishgan.

Bu qoida hozirgacha ham saqlanib kelayapti.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

25



\*\*\*

Yillar o'tishi bilan podsholar o'zgargan. Asta-sekinlik bilan Olimpiya o'yinlari to'xtab qolgan.

Podsholar yana bir-birlari bilan urushadigan bo'lib qolishgan. Ming yildan uzoq vaqt davomida Olimpiya o'yinlari o'tkazilmagan.

1896- yilga kelib fransiyalik Kuberten degan olim tashabbusi bilan Olimpiya o'yinlari tiklangan.

\*\*\*

Olimpiya halqasi nega beshta? Besh halqa yer yuzidagi besh qit'ani bildiradi. Bu halqalar nega besh rangda?

Bu ham bejiz emas, albatta. Havo rang—Yevropa, sariq rang—Osiyo, qora rang—Afrika, yashil rang—Avstraliya, qizil rang—Amerikani bildiradi.

sport•sport•sport•sport•sport

sport•sport•sport•sport•sport•sport





# ARTUR GRIGORYAN




1967-yil 20-oktyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Mamlakatning ko'pkarri championi. Havaskor bokschilar o'rtaida jahon championati kumush medali sovindori. Professional boks bo'yicha sakkiz karra jahon Chepioni. O'zbekistonda xizmat ko'satgan sportchi. „Mehnat shuhrati“ ordeni va „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

27




### **BOKS QIROLI**

Bu championimizning hayoti xuddi ertakka o'xshaydi. Goh ishonsangiz, gohida ishongingiz kelmaydi. Uning hayotida kutilmagan voqealar, dunyoni hayratga solgan g'alabalar, turli-tuman sinovlar, jasoratlar ko'p bo'lgan. Shu bois ham hikoyamizni xuddi ertak singari „Bir bor ekan, bir yo'q ekan“ deb boshlasak ham bo'lardi. Ammo



I





Artur boshidan kechirgan voqealarning hammasi rostdan ham bo‘lgan-da. Ularning hech biri to‘qima emas. Hikoyamizni o‘qib chiqsangiz bunga o‘zingiz ham ishonch hosil qilasiz.

Artur Toshkentda, eski shahardagi Chig‘atoy mahallasida tug‘ilgan. Bu mahalla bolalarining eng yahshi ko‘rgan o‘yini futbol bo‘lgan. Har kuni kechga yaqin bolalar mahallaning tor ko‘chasida to‘planishar va qorong‘i tushguncha to‘p tepishar edi. Bolalarning millati har xil bo‘lsa-da ular bir-biri bilan juda inoq va ahil edi. Hatto kechqurunlari birga dars qilib, bir-birlarining uylarida tunab ham qolaverishardi.

Bolalar orasida Artur juda ham ozg‘in bo‘lsa-da epchil va dovyurak edi. Uning o‘zi to‘g‘ri so‘z bo‘lgani uchun yolg‘on gapirganlarni, maqtanchoqlarni yoqtirmasdi. Ayniqsa, yoshi katta bolalar o‘zlaridan kichiklarni xafa qilsa, Artur sira chidab turolmasdi. U har doim yoshi kichiklarni va kuchsizlarning yonini olardi. Shuning uchun tengdoshlari uni hurmat qilishardi.

Bolalikda odam juda qiziquvchan bo‘ladi. Ertak o‘qisang, ertak qahramoniga o‘xshaging keladi, kino ko‘rsang, kino qahramonidek bo‘lging keladi. Ulardek

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

29





bo‘lishni orzu qilib o‘ylab yuraverasan. Artur esa bolaligida musiqaga qiziqardi. Nog‘ora chalishni yaxshi ko‘rardi. To‘ylarda nog‘orachilarning xattiharakatlarini qiziqib kuzatardi, agar ruxsat berishsa, o‘zi ham chalib turardi. Tengdoshlari esa, uni kela-jakda yaxshi futbolchi bo‘ladi, deb o‘ylashardi. Lekin Artur futbolchi ham, san’atkop ham bo‘lmadi.

O'shanda u beshinchi sinfda o'qir edi. Bir kuni Valera degan do'sti boks maktabiga qatnayotganligini hayajonlanib gapirib qoldi.

—Sen ham qatnashmaysanmi?— dedi Valera. — Sendan zo'r bokschi chiqadi, chaqqonsan, yana chapaqaysan.

—Yo'q, men musiqachi bo'lmoqchiman,—dedi Artur.

—Bokschi bo‘lsang yaxshimasmi,—dedi Valera.—O‘zingni himoya qiladigan bo‘lasan. Hech kimdan qo‘rmaysan.

—Hozir ham hech kimdan qo‘rqmayman,— dedi Artur.

O'zing bilasan,—dedi Valera—zalga bir borib ko'r ganingda edi. Eh-he, shunday chaqqon bolalar borki, maqtanchoqlarning o'ntasiga bittasining kuchi yetadi.

O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

31



Mashhur bokschilar: A. Grigoryan, R. Risqiyev, V. Shin.

Xullas, Valera Arturni boks maktabini bir ko'rib kelishga ko'ndirdi.

Eski shaharda „Spartak“ degan stadion bo'lardi. Boks maktabi shu yerda joylashgan edi. Artur bokschilarning mashg'ulotlarini tomosha qilib o'tirdi. Ular xuddi raqsga tushayotgandek chiroyli harakat qilishar, zarbalarga epchillik bilan chap berishardi. Artur ularga mahliyo bo'lib qoldi. Shu payt uning yoniga murabbiy Lev Gabdullayevich Ahmadjonov keldi.



I





— Ha, bolakay,—dedi u, — sen ham shug‘ul lanishga keldingmi?

Artur shoshilganidan beixtiyor ha, deb yubordi. Shunday qilib Artur boks olamiga qadam qo‘ydi. Lekin murabbiy ham, ota-onasi ham, do‘satlari ham Artur kelajakda shunchalik mashhur bokschi bo‘lib ketishini xayollariga ham keltirishmagan edi.

Artur birinchi musobaqasini juda yaxshi eslaydi. O’shanda u Toshkent shahar boks maktablari o’rtasida o’tkazilgan musobaqada ikkinchi o’rinni

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


33

egalladi. Uni mahalladosh do'stlari xursand bo'lib tabriklashdi. Ammo Artur bundan qoniqmadidi. „Nega biringchi bo'lomadim? Undan qayerim kam?“ deya o'ziga o'zi savol beraverardi. Shu bois Artur jonjahdi bilan mashg'ulotlarga berildi. Ba'zi bolalar orachora mashg'ulotlarga kelmay ham qolishardi. Ammo Artur eng intizomli bola edi. Bir gal u ertalab uxlab qolib, mashg'ulotga kech qoldi. Vaqtida uyg'otmagani uchun oyisidan xafa bo'lgandi.

— Endi murabbiya nima deyman? — deya yig'lab yubordi. So'ngra uyidan uch chaqirim naridagi stadiongacha chopib kelgan edi.

Mehnat qilaversa uning natijasi ko'rinxaveradi. Artur ham ketma-ket g'alabalarga erisha boshladidi. Uning nomi avval shaharga, so'ngra mamlakatga yoyildi. Chet ellik mashhur bokschilarni ham yenga boshladidi.

Nima bo'ldi-yu shu orada ayrim musobaqalarda yutqazib qo'ydi. Bunday paytlarda tushkunlikka tushib sportni tashlab ketganlar ko'p bo'lgan. Uning mahalladosh do'stlari Valera, Hasan-Husanlar ham boksni tashlab ketishgan edi. Ammo Artur yutqazib qo'ysa, qaytaga qaysarligi tutib ketardi. „Men hali unga ko'rsataman, baribir uni yu-



taman!“ deb o‘ziga-o‘zi so‘z berardi.

Ana shu tirishqoqligi tufayli Arturing mahorati oshaverdi. Uni jahon championatiga olib ketishdi. U paytlarda Respublikamiz mustaqil emas edi. O‘zbekiston jahon championatiga borishining o‘zi katta gap edi. Artur dunyoning man-man degan bokschilarini yengib, ikkinchi o‘rinni egalladi.

U yana ko‘plab musobaqalarda g‘olib chiqdi. 1992-yilda Barselonada o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida qatnashdi. Birinchi uchrashuvda g‘alaba qozondi. Afsuski, ikkinchi „jang“ ni hakamlar halol baholashmadи. Arturing raqibiga yon bosishdi. Ana shundan so‘ng u boks bilan xayrlashmoqchi bo‘ldi. Chunki keyingi Olimpiadagacha to‘rt yil bor. Ungacha yoshi o‘ttizga kiradi. Nima qilish kerak? Boksnii tashlab ketishga esa hech ko‘ngli bo‘lmadsi. Mamlakat terma jamoasi bosh murabbiyi Vladimir Shin unga shunday dedi:

— Hali kuching bor, tajribang katta. Hammasi o‘zingga bog‘liq. O‘ylab ko‘r.

Artur boksnii tashlab ketolmadi. Yana astoydil mehnat qila boshladi. Bir kuni xayoliga kelmagan ish bo‘ldi. Uni Germaniyadagi boks klublaridan biriga shartnoma asosida shug‘ullanishga taklif etib qolishdi. Germaniyada Arturing boksdagi ikkinchi hayoti boshlandi. Germaniyadagi musobaqalarda

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

35

qatnashib yurdi. Ikki yil orasida 20 ta uchrashuv o'tkazib biror marta ham yutqazmadı. Germaniyada uni „Boks qiroli“ deb atay boshlashdi. Ana shundan so'ng uni professional boks klublaridan biriga taklif etishdi. U paytlarda O'zbekistonda professional boks yo'lga qo'yilmagan edi. Shu bois Artur mendan professional bokschi chiqarmikan, deya uzoq o'laydi. Havaskorlar boksida 384 marta ringga chiqib, atigi 32 tasida yutqazdi. Professional boksning talabi, qoidasi boshqa. Mashg'ulotlari og'ir, ringda o'n ikki raund jang qilishga to'g'ri keladi. Buning uchun katta iroda, chidam kerak.

Artur qiyinchiliklardan cho'chiydigan bokschi emas. Shuning uchun tavakkal qilib o'zini professional boksdan ham sinab ko'rishga qaror qildi.

Artur bolaligida mehnatdan qochmaslikka o'rgangani uchun professional boks sirlarini ham tez o'zlashtirib oldi. Birin-ketin raqiblarini yenga boshladı. Nihoyat Jahon championi unvoni uchun kurash olib borish huquqiga erishdi.

U 1996-yil aprel oyida jahon championligi uchun birinchi uchrashuvini argentinalik bokschi bilan o'tkazdi. Artur raqibini nokaut bilan yengib, jahon championi bo'ldi. Bu xushxabar bir zumda





butun mamlakatga yoyildi. Televizorda Arturning g‘alabasini, Vatanimiz bayrog‘i ko‘tarilib, davlatimiz madhiyasi yangragani qayta-qayta ko‘rsatildi. Axir Artur mamlakatimiz tarixida birinchi bo‘lib professional boks bo‘yicha Jahon championi bo‘lgan ediда! U mamlakatimizning haqiqiy qahramoniga aylandi.

Artur Jahon championi bo‘lgach, ayrim chet ellik murabbiylar unga o‘z mamlakatlari bayrog‘i ostida ringga chiqishini taklif etishdi. Buning uchun Arturga katta pul va‘da qilishdi.

Artur ularga shunday javob berdi:

— Men O‘zbekiston farzandiman. O‘z Vatanim sharifi men uchun hamma narsadan aziz. Oltin bersanglar ham rozi bo‘lmayman.

O‘sandan keyin Artur dunyoning eng kuchli bokschilarini yengib, yana yetti marta Jahon championi bo‘ldi. U har gal g‘alabadan so‘ng o‘z Vatani — O‘zbekistonga oshiqadi. Tezroq ota-onasi, do‘stlari, yurtdoshlarini ko‘rgisi keladi. Toshkent aeroportida har gal uni vatandoshlari faxr-iftixorva tantana bilan kutib olishadi.

Professional boksda Artur katta shon-shuhratga erishdi. 26 marta ringga chiqib, barchasida g‘alaba

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

37

qozondi. Sakkiz karra jahon championi bo'ldi. O'n olti uchrashuvda raqiblarini nokautga uchratdi. Bugun Artur Grigoryan bilan mamlakatimizdagi katta-yu kichik faxrlanadi. Artur ham O'zbekistonday yurtning farzandi ekanligidan g'ururlanadi:

— Men har gal ringga chiqayotganimda O'zbekistonimiz bayrog'ini o'paman,— deydi Artur.  
— Ana shundan kuch olaman.

— Sizga o'xshab mashhur sportchi bo'lishni orzu qilayotgan yoshlarga qanday tilaklariningiz bor?


Bu savolga Artur shunday javob berdi:  
— Har qanday sohada ham faqat astoydil mehnat qilganlargina orzusiga yetadi. Sportchi o'z xalqi, o'z Vatani nomidan kurash olib boradi. Kimki, Vatanini qancha ko'p sevsaga, shuncha ko'p kuch oladi.

## CHEMPION SO'ZINING TUG'ILISHI

Qadim-qadimda ikki kishi o'rtaсидаги бахс одатда жанг ўйи яккана-якка кураш билан ҳал бо'лган. Ко'пинча тортшиб ғолган икки кишиning о'злари эмас, балки улар томонидан пулга ўйланганлар муштлашибган.



Bunday janglar atrofi o'rالган maydonchada o'tkazilgan. Ana shu joy lotinchafiga „kampus“ deb atalgan. Jangchilarни esa kampuschilar deb atashgan. Fransuzlar bu so'zni o'zlariga moslashtirib „shampiyon“ deyishgan. Inglizlar esa „champion“, ya'ni g'olib deb atashgan.




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport  
1894 -yil 23-iyun kuni Parijda  
Xalqaro Olimpiya qo'mitasi  
tashkil etildi.  
1-Olimpiada 1896-yil Afinada  
o'tkazilgan.





# LAZIZBEK ZOKIROV



1976-yil 3-sentabrda Jizzax tumanida tug'ilgan. Boks bo'yicha Jahon kubogi g'olibi. „O'zbekiston iftixori“ Faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

40


## O'ZBEKİSTON İFTİXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

41



### BAYROQDOR LAZIZ

Toshkentdagagi Astronomiya ilmiy-tekshirish instituti bog'идаги уйлардан бирда Mamajon aka oilasi ham istiqomat qilardi. Lazizbek bolaligidan dadasiga ergashib, institut binosiga tez-tez kirardi. U teleskopda yulduzlarni, sayyoralarни kuzatishni yaxshi ko'rardи.



Ayniqsa, unga boshqa yulduzlardan ajralib turadigan, oq gardishli Zuhal (Saturn) sayyorasi yoqardi. Uning tasavvurida sayyora oq bayrog‘ini hilpiratib, uchib borayotgandek tuyulardi.

Mamajon aka olimlik unvonini olgach, o‘zi tug‘ilib o‘sgan Jizzax tumanidagi Nurli quyosh qishlog‘iga ko‘chib keldi. Lazizbek qishloqdagi 36-maktabda o‘qiy boshladi.

Lazizbek bolaligida ko‘p kasal bo‘lgandi. Dadasi o‘g‘lim sog‘lom o‘sxin deb, uni 10 yoshida akasi Ulug‘bek bilan mактабдаги boks to‘garagiga olib bordi. Jizmoniy mashg‘улотлар Lazizbekning bo‘yiga bo‘y, kuchiga kuch qo‘shdi.

Tengdoshlari o‘rtasida kuchli bo‘lgani uchun uni Jizzaxda o‘tkazilgan viloyat birinchiligiga jo‘natishdi. Lazizbek musobaqada go‘lib chiqib, tomoshaga kelgan dadasi va oyisini xursand qildi. Dadasi shunda unga: „Hali sen jahon championi, olimpiada championi bo‘lasan“, —deb aytdi va uni boks bilan jiddiy shug‘ullanishga rag‘batlantirib bordi. Shu bois ham uni Jizzaxdagi boks klubiga olib kelib, hozirgi murabbiysi Sharof Xudoyberdiyev qo‘liga topshirdi.

Boks zali uyidan 14—15 kilometr uzoqlikda bo‘lgani uchun Lazizbek mashg‘улотларга har kuni

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

43



yugurib kelib, piyoda qaytib ketardi. Ko'pincha, mashg'ulotlarga kechikmayin deb, dam olmasdan yugurardi. Bu yuragiga og'riq berdi. Lazizbek hali haddan ziyod jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish sog'liqqa zarar ekanini bilmasdi-da. Shundan keyin murabbiysi unga qancha yugurish, qanday mashqlar qilish kerakligini belgilab berdi. Ustozi maslahatlariga to'liq rioxaya qilgan Lazizbek yana ilgarigiday kuchli bo'lib oldi. Musobaqalarda qatnashib g'olib chiqdi.

U, men bokschi bo'ldim, musobaqalarda g'olib



chiqyapman, deb oqishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ymadi.

Barcha fanlardan „a‘lo“ baholarga o‘qidi. Matematika o‘qituvchisi esa uning qiyin masalalarni bir zumda yechishini barchaga faxrlanib so‘zlardi. Lazizbek o‘qituvchilari ishonchini oqlab, maktabni kumush medal bilan tugatdi va Jizzax davlat pedagogika institutiga o‘qishga kirdi.

Boksning og‘ir vaznida bahslashish qiyin. Chunki og‘irligi 91 kilogrammdan ortiq bokschilarning zarbasi kuchli bo‘lib, omonat devorlarni ham qulata oladi. Shu bois „jang“ davomidagi bitta xato ham o‘yin taqdirini hal qiladi. Lazizbek ana shu vaznda boksga tushadi.

Bu vaznda yurtimizdan kuchli bokschilar chiqmagani uchun avvaliga ko‘pchilik Lazizbekning imkoniyatiga ishonishmadi. U 1995- yilda bo‘lgan Osiyo championatida kumush medal olib, mutaxassislar va ustozlar ishonchini oqladi. Lazizbek mamlakatimiz terma jamoasi safiga chaqirildi. Tajribali murabbiylar qo‘l ostida yetakchi bokschilar bilan birga shug‘ullanish uning mahorati oshishiga katta ko‘mak berdi.

Endilikda u qatnashgan musobaqalardan sovrin

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


45



olmasdan qaytmaydigan bo'ldi. Markaziy Osiyo o'yinlarida championlikni qo'lga kiritdi. Osiyo championatida bronza medalini oldi. Yirik xalqaro musobaqlarda g'olib chiqdi. Bu Lazizbekka jahon kubogi musobaqasida qatnashish huquqini berdi.

U Xitoyda bo'lgan jahon kubogida dunyoning eng kuchli bokschilarini yengdi. Oxirgi uchrashuvda esa xitoylik mashhur bokschini mag'lubiyatga uchratib, Juhon kubogi sohibi bo'ldi.

Yirik musobaqlarda eng kuchli sportchilar davlat bayroqlarini ko'tarib maydonga kirib kelishadi. 13-Osiyo o'yinlarida Lazizbek Zokirov Vatanimiz



bayrog'ini ko'tarib maydonga tushdi. Sportchilar safida mamlakatimiz bayrog'ini dadil tutib kelayotgan Laziz shu lahzalarda o'zi sevgan—samoda oppoq bayrog'ini hilpiratib uchayotgan Zuhal sayyorasiga juda o'xshardi.


Lazizbekning niyatlari katta. 2000-yilda Sidney shahrida o'tkaziladigan jahon olimpiadasida ham Vatanimiz bayrog'ini maydonga ko'tarib kirmoqchi. Shu olimpiadada dadasi orzu qilganday champion bo'lmoqchi. U ezgu niyatlari faqat muntazam mashqlar tufayli qo'lga kirishini yaxshi biladi. Omad senga yor bo'lsin, Lazizbek!





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport  
2-Olimpiada 1900-yilda Parijda  
o'tkazilgan.  
3-Olimpiada 1904-yilda Sent-Luisda  
bo'lib o'tgan.  
sport • sport • sport • sport • sport





# TIMUR TULYAKOV




1975- yil 11- fevralda tug'ilgan. 1989–1994-yillarda Andijondagi sport-texnika bilim yurtida boks bo'yicha ta'lif oldi. Ayni vaqtida Andijon Davlat universitetining fizkultura fakultetida o'qimoqda. Boks bo'yicha xalqaro sport ustasi. AQSHda, Bangkokda o'tkazilgan musobaqalar sovrindori. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni egasi.



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

49




Temir  
Irodali

### **TEMIR IRODALI TIMUR**

Xalqimizning „No'xatvoy polvon“ degan cho'pchagini ko'pchilik bolalar yaxshi bilishadi. Sababi, no'xat doni jajjigina bo'lishiga qaramay, o'ziga qarshi chiqqan barcha dushmanlarni yengadi. „Kichkinagina mitti—Xolxo'jani yiqitdi“ deganlaridek, ana shu no'xat „Pahlavon“ nomini oladi. Timur Tulyakovni ringda ko'rgan tomoshabin





beixtiyor ana shu xalq ertagini eslaydi. Chunki Timur jussasi kichik bo'lishiga qaramay, qanchadan-qancha pahlavonlarni yengib chiqib, dog'da qol-dirgan. Tinib-tinchimas, tirishqoq Timur boks bilan 12 yoshidan boshlab qattiq shug'ullandi va har tomonlama chiniqib ulg'aydi.

Taqdir taqozosi bilan Timur Tulyakov juda ko'p mamlakatlarda bo'lgan. Tengdoshlari uni hazillashib „Jahongashta Timur“ deyishadi. Otasi harbiy xizmatchi bo'lgani uchun goh Germaniyada, goh Ashgabadda yashashiga to'g'ri kelgan. Qirg'izistonda istiqomat qilishgan paytida bokschilar xonadoni

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

51



bilan qo'shni turishardi. Bu Timur uchun kutilmagan tuhfa edi. Taniqli xalqaro sport ustasi Quvonchbek To'yg'onboyev bilan birqalikda Timur ham qo'lqopni qanday kiyishdan tortib, boksning barcha sir-asrorlarini qunt bilan egalladi. Ayniqsa, u ilk ustoz Leonid Borisovich Rostorguyevning nomini hurmat bilan tilga oladi. U 13 yoshidan boshlab musobaqalarda qatnasha boshladи. Andijon shahrida esa unga Lochin Qo'chqorov, Aleksandr Razmaxov va Mars Qo'chqorovlar murabbiylik qilishdi.

1991-yilda Toshkentda o'tkazilgan yoshlар musobaqasida qatnashib, 46 kilogramm vazngacha



bo‘lgan normativni bajardi va tengdoshlari orasida birinchi sport ustasi bo‘ldi. Kamtarga kamol deganlaridek, u ko‘plab xalqaro turnirlarda bellashib, shuhrat cho‘qqilarini egalladi. Bundan olti yil avval musobaqalarning birida Timurning o‘ng qo‘li qattiq jarohatlandi. Uzoq yillik ko‘nikma va ustozlarining daldasi bilan mashqni yana davom ettirdi. Natijada 1995-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo championatida bronza medali sovrindori bo‘ldi. 1997- yilda Budapeshtda o‘tgan xalqaro turnirda to‘rtinchı o‘rinni egalladi.

1998- yildan boshlab Timur Tulyakov uchun sportchilar tili bilan aytganda „yulduzli daqiqa“lar boshlandi. Dastlab Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘tkazilgan musobaqada 54 kilogrammgacha vaznli bokschilar bilan uch marta kurashga tushib, barchasini yengdi. Birinchi to‘qnashuvda rossiyalik ikki marta jahon championi Rayimqul Malaxbekovni 5-4 hisobida yutdi. Tomoshabinlar bu og‘ir kurashda o‘zbekistonlik chuvakkina yigit g‘olib bo‘lishini sira kutishmagan edi. Yoki kubalik mashhur boksci Voldemar Fond bilan bo‘lib o‘tgan keskin kurashni eslaylik. Timur Voldemarga jahon championatida yutqazib qo‘ygandi. Shuning uchun ikkinchi

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

53

uchrashuv andijonlik yigitcha uchun katta sinov edi. Kubalik bokschi o'ziga tanish bo'lgan raqibini negadir mensimay o'yinga tushdi va masalani uzilkesil hal qilmoqchi bo'ldi. Biroq, jang Voldemar kutganday bo'lmasdi. O'yining tugashiga sanoqli daqiqalar qolganda, 15:14 hisob bilan Timur g'alaba qozondi. Zal qarsaklardan larzaga keldi.

1998-yilda Bangkokda o'tkazilgan XIII Osiyo o'yinlarida Timur Tulyakov dastlab koreyalik, keyin eronlik charm qo'lqop ustalarini yengdi. Afsuski, Timurning qo'li yana lat yedi. Tibbiy yordam ko'rsatildi. Har bir o'yin oldidan o'ng qo'lliga ukol qilib, muzlatishga to'g'ri keldi. U ringga chiqqanda





ko‘proq chap qo‘li bilan himoyalandi va hujum qildi. Zarur paytda o‘ng qo‘lini ishga soldi. Shunga qaramay yurtdoshimiz finalga chiqdi. Temir irodali Timur yakunlovchi o‘yinda ham yengishga tayyor edi. Murabbiylari uning kelajagini o‘ylab, bu o‘yinni oxiriga yetkazishga ruxsat berishmadı. Lekin Timurning bu musobaqada olgan kumush medali oltindan ham qimmatlidir.

## BILIB QO‘YGAN YAXSHI

Havaskor bokschilar o‘rtasida birinchi jahon championati 1974- yilda Kuba poytaxti Gavanada o‘tkazilgan. Bu musobaqalarda hamyurtimiz Rufat Risqiyev jahon championi bo‘lgan.

Jahon kubogi musobaqalari esa har ikki yilda o‘tkaziladi. Uning nufuzi jahon championatiga teng. Mamlakatimizdan kimlar bu musobaqa g‘oliblari bo‘ganini yodda tuting.

1. Vladimir Shin — 1979- yil
2. Narimon Otayev — 1995- yil
3. Muhammadqodir Abdullayev — 1996- yil
4. Laziz Zokirov — 1998- yil

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI



sport•sport • sport•sport•sport sport  
4- Olimpiada 1908- yil Londonda  
o'tkazilgan.  
5- Olimpiada 1912- yil Stokgolmda  
bo'lib o'tgan.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





# SHUHRAT XO'JAYEV



1969- yil 11-iyulda Buxoroda tug'ilgan. Mamlakatimizning eng nomdor sambochisi. Jahon sambo yulduzlari muisobaqasi g'olibи. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

56

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

57





## *SAMBONING SIRLI OLAMI*

Shuhrat bolaligida suzuvchilarga havas qilardi. Yoz kunlari ertadan-kechgacha bolalar bog'chasi-dagi hovuzda cho'milishni yaxshi ko'rardi.

Uni avvaliga 22- maktabning ruscha sinfiga o‘qishga berishdi. Yaxshi o‘zlashtira olmagani uchun to‘rt oydan keyin o‘zbek sinfiga o‘tkazishdi. „Ikki“chi o‘quvchi sanalgan Shuhrat shundan keyin tez kunlarda a‘lochilar safiga qo‘sildi. Yuqori sinflarga o‘tganda fanlar bo‘yicha muktab olimpiadalarida g‘olib chiqди. Hatto, u 6- sinfda o‘qiyotganida algebra bo‘yicha shahar olimpiadasida birinchi o‘rinni egalladi.

O‘g‘il bolalarning fe'l-atvori ma'lum. Ular jismoniy tarbiya darslarida bir zum bo'sh qolsa bas, kim zo'rligini aniqlash uchun kurashga tushib ketishadi. Shuhrat bunday o'zaro bahslarda tengdoshlaridan kuchli ekanligini har doim amalda isbotlardi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'zi basketbolchi bo'lgani uchun darslarda shu turga ko'p e'tibor berardi. Shuhrat ham avvaliga basketbolga qiziqdi. Keyin ko'pchilik bolalar qatori futbolga berilib ketdi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

59



Shu orada boksga ham qatnab ko'rди. Ikki yilcha fotosuratchilikni o'rgandi.

Bir kuni darsdan keyin mahalladosh o'rtog'i bilan suhbatlashib qoldi. U sambo to'garagiga qatnar edi. Tabiiyki, u samboning o'ziga xos tomonlarini hikoya qilib berdi. Shu bahona Shuhrat bu sport turiga qiziqib qoldi va shu kundan boshlab o'rtog'i bilan „Spartak“ o'yingohidagi sambo zaliga bora boshladи. O'n besh yoshli yigitchani Faxriddin Isomov o'z guruhiga qabul qildi.





Samboning sirli olami Shuhratni batamom asir etdi. Ustozi ko'rsatmalarini bekam-ko'st bajarishga kirishdi, har bir usul ustida qayta-qayta ishladi. Belgilangan mashg'ulot tugagandan keyin ham mustaqil ravishda mashqlarni davom ettirdi. Uning og'ir mehnatlari samarasiz ketmadi. Shuhrat 1985-yilda viloyat musobaqasida g'olib chiqdi. Keyingi ikki yilda yoshlar o'rtasida respublika championi bo'ldi.



Ko'pchilik bolalar sport mashg'ulotiga borib, dastlabki g'alabalarga erishgandan keyin dars tayyorlashni yig'ishtirib qo'yishadi. Shuhrat esa aksincha, mактабдаги дарсларини гар доим пuxта о'злаштиришга гаракат qилди.

Geografiya va anatomiya darslari uning jon-u-dili

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

61



I

edi. U mактабни таmомлаганда yetuklik shahdatnomasida faqat geometriyадan „4“ baho bor edi. Boshqa hamma fanlardan „a'lo“. Shuhrat Buxoro Yengil sanoat texnologiyasi institutiga kirib o'qiy boshladi. Bu oliy o'quv dargohida ham jismoniy



chiniqish mashqlarini tark etmadi. Milliy kurash musobaqalari va to'y bellashuvlarida qatnashish Shuhratning mahorati yuksalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Bahovuddin Naqshband xotirasiga bag'ishlangan kurash musobaqasida ham 90 kilogramm, ham mutlaq vaznda g'olib chiqishi uning g'ayratiga-g'ayrat qo'shdi. 1993- yilda sambo bo'yicha o'tkazilgan jahon championatida ikkinchi o'rinni egalladi. Keyingi yillarda mamlakatimiz championatlarida zafar quchdi.



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

63



1996-yilda Shuhratning dovrug'i dunyoga taraldi. U Osiyo championatida, jahon championati va jahon kubogi o'yinlarida ketma-ket g'olib chiqdi. Ayniqsa,



Tokioda o'tgan jahon championatidagi g' alabasi ko' pchilik mutaxassislarning nazariga tushdi.

Hozirgi kunda Shuhrat Xo'jayev mamlakatimizning eng nomdor sambochisi hisoblanadi. U besh bor mamlakatimiz championatida g'olib chiqdi, uch karra Osiyo championi va bir marta qit'a kubogi sohibi bo'ldi. Shuhrat ayni zamonda jahon championi va ikki marta jahon kubogi sovrindori hamdir. Yana qanchadan-qancha milliy kurash musobaqalarida g'olib chiqqan. Qozog'istonidagi bir



## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

65



musobaqa ayniqsa esidan chiqmaydi. O'shanda u o'zidan ikki baravar katta polvonni yiqitib, bosh sovrinni olgan edi.

Shuhrat Xo'jayev faqat nomdor sportchi emas. U bugungi kunda mohir murabbiy ham sanaladi. Uning bu boradagi Botir Xo'jayev, Qilich Cho'liyev, Muxtor Hoshimov kabi shogirdlari hozir taniqli polvon bo'lib yetishgan. Ayni kuchga to'lgan, mahorat cho'qqilariga erishgan Shuhrat Xo'jayev shu kunlarda shogirdlariga, yoshlarga ibrat



ko'rsatib, nufuzli musobaqalarga qizg'in hozirlik ko'rmoqda. U hali Respublikamiz shuhratini ko'p marta dunyoga taratadi.



### **BILIB QO'YGAN YAXSHI**

„Sambo“ ruscha so'zdan olingan bo'lib, „qurolsiz o'zini o'zi himoya qilish“ degan ma'nani anglatadi.

Sambo asrimizning 30-yillarida Sharqiy Yevropada sport turi sifatida shakllangan bo'lishiga qaramay, unda Turonzamin xalqlari milliy kurashining usullari ham bor.

Sambo bo'yicha birinchi jahon championati 1972- yil Tehronda o'tkazilgan.

### **O'ZBEKISTON IFTIXORLARI**





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

•sport sport•sport•sport s

Birinchi jahon urushi bo'layotgani  
sababli 1916-yilda 6-Olimpiada  
o'tkazilmagan.

7-Olimpiada 1920-yil Antverpenda  
bo'lib, o'tgan.

• sport•sport • sport•sport•





# RUSLAN CHAGAYEV





1978-yil 19-oktabrda tavallud topgan. 1985- yili birinchi sinfga borgan. 1991—1997- yillarda Andijondagi olimpiada rezervlari bilim yurtida tahsil olgan.


Boks bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Osiyo championi (1995-yil, Toshkent shahri), XIII Osiyo o'yinlari g'olibi (1998-yil, Bangkok).

„O'zbekiston belgisi“ nishoni bilan taqdirlangan. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni egasi.

O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

69





Ruslan tabiatan og‘ir va bosiq edi. Bolalar bilan urishmas, hech kimga birinchi bo‘lib qo‘l ko‘tarmasdi. Buning oqibati yaxshi bo‘lmashagini bilardi. Ammo, bolalar singlisi Luizani bilib-bilmay xafa qilib qo‘yishsa bormi, Ruslandan osonlikcha qutulish qiyin edi. Ha, bir zumda mushtlari tugilib, jahlini bosolmay qolardi. Singlisining bir tomchi ko‘z yoshi uni ana shunday ahvolga solardi. Vujudiga kuchi sig‘may ketardi.

„Kuchsiz, zaif bolalarni „zo‘r“lardan himoya qilish kerak, ayniqsa qizlarni“, deb o‘ylardi Ruslan. Buning uchun mushtlashish sirlarini bilish kerak. Masalan, bokschilarga o‘xshab. Ular mushtlarini shunday o‘ynatishadiki, ring degan torgina joyda shunday harakat qilishadiki... musht tushirib, mushtdan qutulib qolishadi.

Ana shunday o‘y va xayollar bilan Ruslan Andijondagi Olimpiya rezervlari bilim yurtiga bormoqchi bo‘ldi. Bu yerda Ruslan qiziqayotgan boks bo‘limi ham bor edi.

—Yo‘q, — dedi Ruslanning onasi Zamira opa rozi bo‘lmay, — sen boshqa bo‘limga kir, shuyam

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


71



ish bo'ldi-yu, nuqul ikkitasi chiqib oladi-da, bir-birini do'pposlashgani-do'pposlashgan. Yaxshiyamki qo'llarida yumshoq qol'qoplari bor...

—Ular siz o'ylaganchalik mushtlashishmaydi, polvonliklarini ko'rsatishadi. Axir o'zingiz aytgansiz-ku, Ruslan—polvon, qo'rmas degani deb. Shundoq, bo'lgach, nomimga o'xshashim kerak-da, onajon.





Ruslan mazkur bilim yurtiga kelganda 13 yoshda edi. Yoshlar murabbiysi Aleksandr Razmaxov uni yogurtirib, balandlikka sakratib, turnikka tortirib ko'rди-da:

—Kelib yuraver, oldindan bir nima deyish qiyin,—dedi.

72

## O'ZBEKİSTON İFTİХORLARI




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

73

E-he, bu gap Ruslanni qanchalar quvontirganini bilsangiz edi! Mana endi unda ham bu yerdag'i boshqa bolalar kabi o'z charm qo'lqopni bo'ladi. Chiroqli. Qop-qora. Televizorda ko'rgan, „o'zbek qoploni“ deb nom olgan Rufat Risqiyevda ham shunday qo'lqop bor. Ha... qo'lqop hamma da bo'lishi mumkin, lekin hammayam Rufat Risqiyev bo'lolmaydi-da!

Kunlar ketidan kunlar o'ta boshladi. Ruslan charchash nimaligini bilmay tinimsiz shug'ullanar, goh yutar, goh yutqazardi. Yutgan kunlari undan





baxtli odam yo‘q. Yutqazib qo‘yganda esa... Bunday paytlarda u alamini mashqdan olardi. Go‘yo o‘zi bilan o‘zi olishardi. Qo‘llari tolib, oyoqlaridan mador ketib, yiqilib ham qolardi.

Mashqda qancha qiyin bo‘lsa, hayotda shuncha oson bo‘ladi, deganlari rost ekan. U asta-sekin katta musobaqlarda qatnasha boshladи.

U avval O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida „zo‘r“ ligini ko‘rsatdi. Keyin O‘rta Osiyo musobaqlariga yo‘l

74

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

75



oldi. Qo'li u yerda ham baland keldi. 1995-yili Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo davlatlari charm qo'lqop ustalari bellashuvida esa nomi tillarda dos-ton bo'ldi. Bu musobaqada 17 mamlakat – Yaponiya, Pokiston, Eron, Hindiston, Filippin, Koreya, Quvayt, Indoneziya, Qozog'iston, Tailand va boshqa davlatlardan eng „zo'r“ larning „zo'ri“ qatnasha-yotgan edi. „Alpomish“ sport saroyi tomoshabinlar bilan shunaqangi tirband-ki, oyoq bosishga joy yo'q.





Ruslan hayajonlanardi. Chunki raqiblarining birortasi uni, u esa raqiblarini tanimasdi. Buning ustiga u o‘z vatani, o‘z uyida kuch sinashardi. Yutqazib qo‘yish... Yo‘q, Xudo saqlasin! U qanday bo‘lmasin yutishi kerak. O‘zbekistonning bayrog‘ini ko‘tarishi kerak.

Ruslanning raqibi mashhur hind bokschisi Larha Singh edi. U Hindiston championi edi. Ular 91 kilogrammgacha bo‘lgan vaznda kuch sina-shishlari kerak.

76

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


Ringga chiqishi bilan halidan beri tinchlik bermayotgan hayajon birdan qaygadir chekindi.

—Ruslan, bo'sh kelma...

—Faqat g'alaba!

—Tomoshabinlar uni qo'llab-quvvatlay boshlashdi. Barchaning ko'zi unda. U nafaqat yutishi, shunday o'yin ko'rsatishi kerakki, hamma ham qoyil qolsin, ham hayratga tushsin. Ruslanning faqat o'ziga xos aniq va tiniq zarbalari bor edi, u raqibini bir necha daqiqadayoq hushidan ketkazib qo'yishi mumkin. Lekin u bu usulni hadeb qo'llayvermaydi. Sportchi o'rtaga chiqdimi, nimalarga qodirligini, faqat kuchini emas, mahorati-yu, irodasini ham namoyish eta olishi kerak. Chinakam sport mana shu!

Ruslan raqibini ochkolar bo'yicha ancha yuqori hisobda yutdi. Raqibi yoshgina yigitcha — Ruslanga tan berib, qo'lini qisib qo'ydi. Sport saroyi gulduros qarsaklardan larzaga keldi. Ruslanning ustozlari Aleksandr Razmaxov bilan Mars Qo'chqorovlar ishonchni oqlagan shogirdini mehr bilan bag'rilariga bosishdi. Hayotda qimmatbaho toshlar ko'p bo'ladi. Lekin u chinakam zargarning qo'lliga tushsagina yarqirab, rang-barang jilolarini namoyish



etadi. Inson ham shunday. Ruslanning champion bo‘lishida ustozlarining xizmati katta edi.

Shundan keyin Ruslan Budapeshtda o‘tkazilgan jahon birinchiligi musobaqasiga yo‘l oldi. U endigina 19 yoshga kirgan edi. Yosh bo‘lsa-da, ko‘pgina raqiblarini dog‘da qoldirardi. Ko‘pincha uni hali g‘o‘r, tajribasi kam deb o‘ylashardi. U raqiblarini, o‘zbekchasiga aytganda, birin-ketin „chalpak“ qilib finalga chiqdi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

79

Uni ikki marta Olimpiada championi, bir necha bor jahon championlari bo'lgan kubalik Feliks Savon kutardi. Savon afsonaviy Gulliverga o'xshardi. Bo'yi ikki metrdan ziyod. Ruslanning bo'yi undan bir kalla past, bir metr-u sakson olti santimetr edi.


Feliks ringga har doimgidek ishonch bilan ko'tarildi va Ruslanga bepisandlik bilan qaradi. Ammo „sinamagan otning sirtidan o'tma“ deganlaridek, Ruslan kubalik bokschi uchun sinashta bo'lмаган raqib edi. Ruslan esa uning kimligini, boks olamida qanchalar shov-shuvga ega ekanligini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham ruhiy, ham jismoniy tarafdan o'zini bu jangga tayyorlagan edi. Faqat bitta nozik tarafi,— o'ng qo'lining ikki barmog'i singan, u azob berib og'rirdi. U hammasiga chidadi, og'riq qo'li bilan ikki bor olimpiya g'olib bo'lgan raqibini yutdi. O'zbekiston madhiyasi yangrab, Vatanimiz bayrog'i ko'tarilganda undan baxtiyorroq inson yo'q edi.

Kubalik Savonning dardi ichida qoldi. Raqibiga bepisandlik bilan qaragani uchun o'kindi. U Ruslan bilan yana bir bor ringga chiqishni va sportchilar tili bilan aytganda „o'chi“ni olishni ko'ngliga tukkan edi. Ular 1998-yili Bolgariyada bo'lib o'tgan xalqaro turnirda yana uchrashishdi. Savon endi kim bilan



I





maydonga tushayotganini yaxshi bilardi. Biroq bu safar ham g'abalani boy berdi va Ruslanning chindan ham zo'rligini tan olib, uni samimiy tabrikladи.

Ruslan Chagayev qisqa vaqt ichida ko'plab hurmat shohsupalariga ko'tarildi, ammo baribir o'sha bolaligidagi kabi og'ir, bosiq va kamtarligicha qoldi. U bir vaqtlar singlisi Luizani va kuchsiz bolalarmi himoya qilish niyatida boks bilan do'stlashgan edi. Mana endi u bugun O'zbekistonning sharafini himoya qilish, shon-shavkatini oshirish uchun tirishmoqda. Oldinda—2000-yil Sidney shahrida bo'ladigan olimpiada o'yinlari. Omad yor bo'lsin senga, andijonlik pahlavon!

## BILIB QO'YGAN YAXSHI

 Boks ikki turga bo'linadi. Havaskorlar boksi va professional boks.

Ularning farqi nimada?

Havaskorlar boksida sportchi biror joyda ishladi yoki o'qyidi. Bo'sh vaqtida boks bilan shug'ullanadi. Professional bokschilar faqat boks bilan shug'ullanishadi. Boks ularning kasbi hisoblanadi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport•sport•sport•sport•sport  
8-Olimpiada 1924-yil Parijda  
o'tkazilgan.  
O'sha yili Shamonida 1-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tdi.

81





# LINA CHERYAZOVA



1968-yil 1-noyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan.

Mustaqil Respublikamizga birinchi bo'lib Olimpiya o'yinlarining oltin medalini olib bergan. Bu voqeа 1994-yil Norvegianing Lillexammer shahrida sodir bo'lgan.

1993-yilda jahon championi, 1993 va 1994-yillarda jahon Kubogi g'olibи.

1994-yilda og'ir jarohat olganiga qaramay, matonat ko'rsatib yana katta sportga qaytgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

83



## ***SPORT BU—MO'JIZA***

Linaning navbatdag'i Olimpiada musobaqalarida ishtirok etishi ko'plarni hayratga solib qo'ydi.

— Hahotki?

— Bu mumkin emas?

— Lina sport bilan xayrlashib bo'ldi...

Gap chang'i akrobatikasi ustasi Olimpiada va jahon championi, bir necha bor jahon Kubogi va Granpri g'olib Lina Cheryazova haqida borardi. Ajabo, unga nima qilgan edi? Nega u musobaqa-da ishtirok etmasligi kerak?

Fojia Amerikada ro'y bergan edi. Ro'y berganda ham yirik bir musobaqada emas, oddiy ko'rgazmali o'quv mashqlarining birida. O'shanda ham suratga oladigan, kinoga tushiradigan kameralar shay bo'lib turardi. Jurnalistlar, sport mutaxassislari o'zbekistonlik bu sportchi bilan qiziqib qolgan edilar. Axir chang'i akrobatikasida mana men degan shovvozlar ham uning oldiga tusholmayotgan edi-da. Ular havoda ikki, jilla qursa ikki yarim marta aylansa-yu, Lina qiynalmasdan uch marta aylansa! Axir, bir harakat bilan o'n besh metr balandlikka ko'tarilishning o'zi bo'ladimi? Odamda qanot

### **O'ZBEKISTON IFTIXORLARI**






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

85





yo‘q-ky?! Odam salkam oltmisht kilolik o‘z vaznini shuncha balandlikka itqita olishi uchun qancha kuch kerak? Yo‘-o‘q, bu borib turgan mo‘jiza. Unda bir ilohiy kuch bo‘lsa kerak! Yana u osmon-u falakda chiroyli shakllar yasab, yumshoq joyga emas, chog‘ir tosh ustiga tushadi-ya. Aytishga tiling bormaydi, o‘lim bilan barobar-ku, bu axir...

Lina ayrim sportchilarga o‘xshab mahoratini sir saqlamasdi. U shu paytgacha nimaga erishgan bo‘lsa, hammasi tinimsiz mashq orqali bo‘lganini aytardi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

87




Keyin ko'rgazmali mashqlari bilan o'z texnikasini takror va takror namoyish qilardi. Ha, o'rgatsam boshqasi mendan o'tib ketadi-ku, degan qizg'anchiqlik yo'q edi unda.

Undagi ana shu o'ta bag'ri kenglik, fidoyilik pand berdimi, ishqilib o'quv mashqlarining birida qat-tiq jarohat oldi. Yerga boshi bilan tushdi va miyasi lat edi.

U bir necha kun behush yotdi. Amerikalik shifokorlar qo'lidan kelgan muolajalarni qilishdi.





Ular, Lina hayotga qaytishi mumkin, lekin sportga emas, degan xulosaga kelishg'an edi. Va bu xabar uning do'stlarini ham, sportdagi raqobatdoshlarini ham ancha mahzun qildi. Chunki ular bu qanotli qizdan hali yana ko'pgina mo'jizalar kutishayotgan edilar-da! Esiz...

Lina Amerikadan Toshkentga qarab yo'lga chiqar ekan, vrachlar qo'ygan tashhisni o'qib o'kinmadi. Tushkunlikka tushmadi. Odatdagidek, go'yo hech narsa bo'limgandek samimiy jilmaydi-da:

— Hammasi boshqatdan, ha, yangidan boshlanadi,—dedi ishonch bilan.

Qarang-a, sportda nimalar bo'lmaydi deysiz. Sportning o'zi insonga yangidan tug'ilish uchun kuch va iroda berar ekan-da.

Toshkendagi qadrdon „Start“ maydonchasi, Bo'stonliqdagi sport o'yingohi uni o'z bag'riga oldi. Ahir u shu joylarda chiniqdi, butun dunyoga tanildi. Bari qadrdon, bari o'ziniki...

Lina ikki yil orasida go'yo yigirma yillik yo'lni boshqatdan bosib o'tdi. Sportda uchrab turadigan mo'jiza yuz berdi. U o'ziga qo'yilgan tibbiy tashhislarni yenggan holda Yaponiyaning Nogano shahrida o'tadigan Olimpiada musobaqalarida qatnashish




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

uchun yo'llanma olgan edi. Ko'pchilikni hayratga solgan narsa mana shu edi.

89

Noganoda ham Linani jurnalistlar, sportchilar mo'jizani kutib olgandek qarshilashdi.

- Madam Cheryazova, nahotki musobaqada qatnashmoqchisiz?
- Bo'lmasa nimaga keldim?
- Qo'rwmaysizmi?
- Sport qo'rkoqlar joyi emas!
- Men ko'zlarimga ishonmayapman, maylimi, u yer-bu yeringizni ushlab ko'rsam. Mabodo, egizak emasmisizlar?



Lina samimiy, bir yangroq ovozda kuladi.  
— Yaxshisi, ertaga mashq maydoniga kelinglar,  
o'sha yerde uchrashamiz.

Lina sportchasiiga aytganda yana formada.  
Raqobatdoshlari bilan maydonga kelgan. Ha,  
musobaqalardan oldin sportchi o'zini maydonga  
o'rnatib olishi kerak. Yoki maydon unga o'rganishi  
kerak. Ajabo, navbat Linaga kelganda, chor atrofni



90

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

odatdagidek, fotoapparatlar, kinokamera, telekamera tutgan jurnalistlar o'rab olishdi. Tomoshabinlar esa xuddi musobaqadagidek ko'z tikib turishardi.

91

— Lina, bo'sh kelma! Seni butun Yaponiya kuzatyapti. Mo'jizangni namoyish et, — degan bir hayqiriq qulog'iga yetdi. U bamisoli charxlangan qilichdek gavdasini sal oldinga eggancha pastga qarab sho'ng'idi. Birinchi va ikkinchi to'lqinlardan o'ziga xos go'zal harakatlar qilib o'tdi-da, oxirgi hal qiluvchi to'lqinga kuch bilan urilib, xuddi to'pdan otilgandek, osmon-u falakka ko'tarildi. Osmon, kenglik uni oqqushday o'z bag'riga oldi. U odatdagidek, erkin, xotirjam uch bora aylana yasadi-da, mo'ljalga bexato tushdi.

Maydon guvillab ketdi. „Mo'jiza, mo'jiza!“ — degan hayqiriqlar tog'-toshlarda aks sado berdi. Bu Olimpiadada ham Linaning oldiga hech kim tusholmasligi ma'lum bo'ldi.

Biroq, Lina ushbu Olimniyadada g'oliblik uchun kurashmadi. Uning uchun bu muhim emasdi. Muhimi, sport olamidan uni o'chirmoqchi bo'lgan ayovsiz dard ustidan g'olib kelganligi edi. Sport bu mo'jiza—u o'lgan odamni ham tiriltira oladi, degan haqiqatni anglatish edi...





92

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI







## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


sport • sport • sport • sport • sport • sport •  
9-Olimpiada 1928-yil  
Amsterdamda o'tkazildi.  
O'sha yili Sen-Morisda 2-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tdi.

93





# OLMOS YUSUPOV




1974-yil 9-fevralda tug'ilgan. Kikboksing bo'yicha Xalqaro sport ustasi. Ikki karra jahon championi. Yevropa va Osiyo g'olibi. Osiyo kubogi sovrindori. „O'zbekiston iftixori“ Faxriy unvoni sohibi.


94

O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI




95

### ***YENGILMAS OLMOS***

Olmos degan qimmatbaho tosh bor. U qadim zamonalardan ma'lum. Nomi esa grekcha „adaman-tos“ so'zidan olingan bo'lib, qattiq va mustahkam degan ma'noni anglatadi. Hech bir narsa qattiqligi jihatidan bu toshga teng kelolmaydi. Shu sababli ota-onalar ko'pincha o'z farzandlari nomini Olmos deb qo'yishganda ana shunday metin-mustahkam, chidamli bo'lsin deb orzu qiladilar. Lekin bunga





erishish uchun faqat orzuning o'zi kifoya qilmaydi. Yengilmas sportchi bo'lishning bitta yo'li bor, bolalikdan tinimsiz shug'ullanish, erinmaslik, qiyinchiliklardan qo'rqlaslik kerak. Olmos Yusupov ham osonlikcha dunyoga tanilmadi. U rosmana bahodir yigit. Bo'yi 1 metr-u 83 santimetr. Og'irligi 75 kilo. Bilagida tog'ni ursa talqon qiladigan kuchi bor. Istirohat bog'larida kuch o'lchaydigan asbob-

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



97

lami ko'rgansiz. Olmos gurzidek mushti bilan bir tu-shirsa bormi, naq 190 ni ko'rsatadi. U shuncha yu-ni bir qo'lida bemalol ko'tara oladi. Bu hazilakam emas. Olmos shuncha kuch-quvvatni qayerdan olgan?

U mакtabda futbolni yaxshi o'ynardi. Hamma tolib qolganda ham u charchamasdi. O'rtoqlari yuraging ikkita, deyishardi kulib. U chim ustida xokkey o'ynashni ham yoqtirardi. Balki bilaklarini



kuchli qilgan shu sport turidir. Suvda suzishni tark etmasdi. Shundan bo‘yi tik, qomati chiroyli edi. Ayni paytda u qo‘l jangi, dzyudo mashqlariga ham ulgurardi. Parashut sporti-chi? U bir emas, 83 marta samolyotdan sakragan. Parashutdan sakrash bo‘yicha sport ustasi bo‘lgan. Qo‘rqmasligi, dovyurakligiga sabab balki shundandir...

Xo‘s, Olmos kikboksingga qanday kelib qoldi?

Bir kuni televizorda kikboksing bo‘yicha Osiyo birinchiligi o‘yinlarini ko‘rsatib qolishdi. Olmos toshkentlik Botir Zokirovning jangini ko‘rdi-yu, o‘z imkoniyatlarini shu sportda ham sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi. Bu paytda u roppa-rosa 20 yoshga to‘lgan edi. U kikboksingchilarning „Billur“ klubiga kelganda hatto kech emasmikan, degan ikkilanishlar ham bo‘lgan edi.

— Men mashhur bo‘lish niyatida emasman. Shunchaki o‘zimni sinab ko‘rmoqchiman, nima-gadir menga yoqyapti shu sport, — dedi Olmos.

U kikboksing bo‘yicha birinchi ta’limni Ruslan Dadaxonovdan oldi. Keyin u bilan Botir Zokirov, Baxtiyor Cho‘tboyev va Botirning otasi — boks va kikboksing faxriysi Shokir Zokirovlar shug‘ullana boshlashdi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

99



Badani olmosdek pishiq, charchoqni sezmaydigan, tirishqoq, zarbalari kuchli bu yigit ustozlariga yoqib qoldi. Oradan besh oy o'tmayoq, u Chelyabinsk shahrida bo'lib o'tgan kikboksingchilarning Osiyo birinchiligidan bronza medali bilan qaytdi. Shundan keyin ustozlari uni 1995- yili Kiyev shahrida o'tadigan Jahon birinchiligi bellashuviga tayyorlay boshladilar. Bu o'rtada u O'zbekiston g'olibi ham bo'lib oldi. Kiyevda u



besh marta maydonga tushdi. (Kikboksingda 2 daqiqadan 3 raund tushiladi.) Besh raqibini yengdi. Ayniqsa, turkmanistonlik raqibiga uchinchi raundda shunday zarba berdiki, u qaytib tura olmadı. Ha, uni zambilda olib chiqib ketishdi. Axir 190 kilolik zarbaga chidash oson deysizmi?! Zalda mana men deb o'tirgan „zo'r“lar-u hakamlar „yopiray“ deb yoqa ushlab qolishdi. Hatto ustoz Shokir Zokirovdan kelib so'rashdi ham:

- Bu yigitni qayerdan topdingiz?
- O'zbekistonda bunaqa yigitlar ko'p,—g'urur bilan javob berdi ustoz.

Olmos finalda germaniyalik Frank Budovskni ham ochkolar bo'yicha kattagina hisob bilan yengdi. O'zbekistonlik jahon g'olibini qarsaklar bilan tabriklashdi.

Vatanimiz madhiyasi chalindi, bayrog'imiz ko'tarildi.


1997-yili Qirg'izistonning Bishkek shahrida xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda ham Olmos finalga chiqdi. U kikboksing bo'yicha mutlaq jahon g'o-libi yaponiyalik Massimo Liberati bilan maydonga tushdi. Ochkolar hisobida yutqazdi. Kumush medal sovrindori bo'ldi. Shu yili Gransk shahrida bo'lgan

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI




101


jahon birinchiligidida Olmos Yer sharida o'ziga teng keladigan „zo'r“ yo'qligini isbotladi. Bu turnirga jahoning barcha mana men degan kikboksing yulduzlari kelishgan edi. Olmos hammasini birin ketin yutib, mutlaq g'olib bo'ldi.

Ha, bu sportda jang bor-yo'g'i olti daqiqa davom etadi.

Olmos esa buning uchun bir kunda 4—6 soatlab mashq qiladi.

Ana shunaqa gaplar... Go'zal poytaxtimiz Toshkentda kikboksing qiorlari tan bergen, nomini butun dunyo kikboksingchilari yaxshi biladi gan, jahoning mutlaq g'olib, bo'lajak qirol Olmos





Yusupov yashaydi. Shuningdek, uni mashhur qilgan „Billur“ kikboksing klubı ham shu yerda. Yana ajoyib va g‘aroyib ustozlar borki, ular Olmosga o‘xshaganlarni quchoq ochib kutib olishadi. Bu qutlug‘ dargohga marhamat qiling, aziz bolalar.

### BILIB QO‘YGAN YAXSHI


Kikboksing shunday sportki, unda boks, karate, qo‘ljangi, taekvondo, tailand boksi kabi sport turlari uyg‘unlashib ketadi. Bir qaraganda uzuk ko‘zidek nafis, serqirra o‘yin. Raqiblar qo‘llariga charm qo‘lqop, bosqlariga himoya qalpoqlari hamda shalvar kiyib oladilar. Beldan yuqorisi yalang‘och bo‘ladi. Jangda qo‘l va oyoqlar baravar ishga tushadi. Ayniqsa, oyoq bilan beriladigan zarbalar hakamlar tomonidan yuqori baholanadi. Jangda raqib tanasining belgilab qo‘yilgan 20 joyigagina zarba berish mumkin. Aks holda o‘yinchi sportdan chetlatiladi yoki unga mag‘lubiyat yoziladi. Ha, kikboksing chinakam yigitcha o‘yin.




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport sport sport sport  
sport sport sport sport  
10-Olimpiada 1932-yil  
Los-Anjelesda o'tkazilgan.  
O'sha yili Leyk-Plesidda 3-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tdi.







# RUSTAM QOSIMJONOV




1979- yil 5- dekabrda Toshkentda tug‘ilgan. 5 yoshidan shaxmat o‘ynaydi. Poytaxtimizdagi 76-maktabda o‘qigan. 15-bolalar va o‘smlar sport maktabida shaxmat bo‘yicha ta’lim olgan. O‘zbekiston championi (1997, Toshkent), Osiyo championi (1998, Tehron). Juhon shaxmat olimpiadalarini qatnashchisi, ko‘plab nufuzli xalqaro turnirlar g‘olib.

Xalqaro grossmeyster. „O‘zbekiston belgisi“ ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

107



## **USHALAYOTGAN ORZULAR**

Rustam bolaligidan qiziquvchan edi. Ko'p narsalarni bilishga intilardi. Dastlab matematikaga qiziqib qoldi. Hatto besh-olti yoshida 1- sinf matematika kitobini bog'chaga olib ketar, qo'shuv va oluvlarni qayta-qayta o'qirdi. Shu yoshidan boshlab gaplariga raqamlar qo'shildi. „Falonchi aka 10 yoshda, mendan 4 yosh katta“, „Manavi daraxtning balandligi o'n metr bo'lsa kerak“, „Bekatga 5 daqiqada chiqamiz...“ Matematikaga bo'lgan qiziqishi shaxmatni tez o'rganishiga yordam berdi.

Maktabdan qaytgach, shaxmat o'ynaymiz, deb akasi Xurshidni holi-joniga qo'ymasdi. Yutqazsa ham qayta-qayta o'ynayverardi. U 2-sinfda o'qiyotganida shaxmatga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabiga bora boshladi. Rustam xotirasi kuchli, tirishqoq va intizomli bola edi. Murabbiysi Aleksandr Grushevskiy undagi qobiliyatni payqab, Rustamga alohida e'tibor bera boshladi. Yozgi ta'til boshlangach, ustozи unga shaxmat to'g'risidagi kitobini taqdim etib, unga aniq vazifalar berdi.


O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

109



109



QI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

111



Rustam bu vazifalarni bajarishga berilib ketdi. Oyisi Mehriniso opa o'g'lining tinimsiz shug'ullanishidan xavotir olib, shaxmat o'ynashni cheklab qo'ydi. Lekin Rustam vaqt topdi deguncha vazifalarni bajarishga kirishardi. Bir kuni Rustam ko'rpa tagida fonar yoqib, kitobdag'i shaxmat masalalarini yecha boshladi. Buni ko'rgan oyisi o'g'lini boshqa urishmaydigan bo'ldi.






Rustam uy vazifalarini a'lo darajada bajarayotganini ko'rgan murabbiyning mehri oshib ketdi.

Shaxmat maktabi boshqa joyga ko'chdi. Ustozi Rustamni uidan o'zi olib ketib, mashg'ulotlar tugagandan keyin olib kelib qo'yardi. Agar biror sabab bilan Rustam mashg'ulotga qatnashmay qolsa, u bilan uyida shug'ullanardi. Ustoz-shogirdning harakatlari yaxshi samara berdi. Rustam mamlakat birinchiligidagi g'olib chiqdi.

Kimdir Rustam shaxmatga berilib ketib, boshqa fanlarni nomiga o'qigan bo'lsa kerak, desa xato

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

113

qiladi. Rustam mактабда барча фанлардан а'ло о'қирди. Jamoat исхларида фаол қатнашади. Hatto „Yoshlar ташкilotлари исх фаoliyatini qayta tuzish“ mavzusida маqolalar yozgandi. A'lochi va фаол о'quvchi sifatida унга „Artek“ oromgohiga 40 kunga yo'llanma berishdi. Rustam „Artek“ da raqs то'garagiga қатнashdi. Raqs ko'rigida yaxshi қатnashgani uchun diplom bilan taqdirlandi.

Ana shu yillarda Rustam geografiyaga ham qiziqib qoldi. U mazkur fanni qunt bilan o'рганди. Jahon xaritasiga qarab, istagan mamlakatning maydoni va aholisi sonini yoddan aytardi. Shu o'rinda bir voqeani esga olaylik. Oyisi hovliga suv sepdi. Rustam hovliga qarab: „Oyi, xaritadagi Kanada maydoniga o'xshatib hovliga suv sepibsiz“, dedi. Yosh o'smir барча mamlakatlarning xaritadagi qiyofasini ana shu darajada yodlab olgan edi.

Keyinroq u adabiyotga qiziqib qoldi. Davralarda katta-katta she'rlarni ketma-ket yoddan o'қirdi. Bularning hammasiga qaramay shaxmat Rustam uchun birinchi o'rinda turardi. Endilikda u tajribali murabbiy Sergey Pinchuk mashg'ulotlariga қатнardi. Har bir o'yindagi vaziyatlarni chidam bilan tahlil qilgani uchun musobaqalarda g'olib chiqa boshladi.





Yosh shaxmatchining musobaqalarda qo‘lga kiritgan medal va sovrinlari ko‘payib borardi. Lekin Rustam ulardan birini olganda juda hayajonlandi, orzusi ushalganday bo‘ldi. Bu Prezidentimiz Islom Karimov sovg‘a qilgan 300 mingdan ziyod sara o‘yinlar matni yozilgan „Ay bi em-386“ kompyuteri edi. Kompyuterda shug‘ullanish yanada kuchli shaxmatchi bo‘lishiga katta yordam berdi.

O‘zbekiston championati oxirgi turida erishgan g‘alabasi Rustamning yetuk shaxmatchi eka-

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI


115

nini yaqqol ko'rsatdi. Chunki so'nggi tur oldidan Rustam va Vladimir Yegin 9 tadan ochko to'plash-gandi. Kim g'alaba qilsa o'sha champion va xal-qaro grossmeyster bo'lardi. Bunday vaziyatda g'alaba qozonish uchun ham bilim, ham iroda kerak. Rustam o'yinda g'alaba qozonib, yuksak unvonlarni qo'lga kiritdi.

1998-yil Rustam uchun muvaffaqiyatli keldi. U Osiyo championi bo'ldi, jahon championati mintaqa musobaqasida g'olib chiqib, final bosqichiga yollanma oldi.

Rustamning dadasi Mashruk aka bundan yigirma yil muqaddam Garri Kasparovning gaze-tada chiqqan maqolasini o'qib bo'lgach, uning suratiga tikilib turib: „Bu yigitcha irodali ekan, albatta jahon championi bo'ladi“, degan ekan. Haqiqatan ham oradan olti yil o'tgach Kasparov jahon championi bo'ldi.

Mashruk aka o'sha kezlarda o'g'li Rustamning ham irodali bo'lib ulg'ayishini, champion bo'li-shini orzu qilgan ekan. Bugun Rustamning iroda-siga ko'pchilik qoyil qoldi. U a'lo baholarga o'qish



bilan birga katta-katta musobaqalarda g'olib chiqyapti.  
Niyati Garri Kasparov, Anatoliy Karpovga o'xshab  
jahon championi bo'lish.

Rustam albatta orzusiga yetadi, chunki u erinmay  
astoydil mehnat qilyapti.

### ***BILIB QO'YGAN YAXSHI***


„Shaxmat“ so'zi ikki so'zdan — „shoh“ va  
„mot“ so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, shoh mot  
bo'ldi, ilojsiz qoldi, yengildi degan ma'noni bildiradi.

Shaxmat o'yini juda qadim zamonalarda,  
birinchi bo'lib sharq mamlakatlarida, jumla-  
dan, bizning yurimizda paydo bo'lgan. Shaxmat  
ota-bobolarimizning eng sevimli o'yinlaridan  
hisoblangan.



## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

sport•sport • sport sport•sport•sport  
11-Olimpiada 1936-yil Berlinda  
o'tkazilgan.  
O'sha yili Germish-Pavtenkirkenda  
4-qishki Olimpiada bo'lib o'tgan.



# SAYDALI YO'LDOSHEV




1968- yil 31- yanvarda Chirchiq shahrida tug'ilgan. Jahon shaxmat olimpiadasining oltin va kumush medallari sovrindori. Xalqaro grossmeyster. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi. „O'zbekiston belgisi“ ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

119



## **O'ZBEKNING G'URURI BALAND BO'LADI**

Chirchiq shahridagi 19-maktabning 3-sinfiga yangi o'quvchi kelib qo'shildi. Tanaffus paytida bolalar uni o'rab olishib, shaxmat o'yinini bilish-bilmasligini so'rashdi. Yangi o'quvchi bunday o'yinni bilmasligini iymanib tan oldi. Bolalar uni maktabdagi shaxmat to'garagiga taklif etishdi. Bu o'quvchi kelajakda xalqaro grossmeyster bo'lib yetishadigan Saydali Yo'ldoshev edi.

Saydali sinfdoshlari bilan V. Zaxarov mashg'ulot o'tkazadigan to'garakka qatnay boshladi. U birinchi kundanoq shaxmat o'yiniga qiziqib qoldi. Uyiga qaytar ekan, xayolida shaxmat donalarining yurishini o'ylab keldi. Ovqat paytida katak-katak dasturxonga ot yurishlarini chiza boshladi. Buning uchun oyisidan dakki eshitdi. Shaxmat o'yini Saydalini birinchi kundanoq ana shunday qiziqtirib qo'ydi. U to'garakda ustozining har gapiga qulq solib, astoydil shug'ullandi. Asta-sekin sheriklari ustidan g'alaba qila boshladi. Keyinroq to'garakning yetakchi shaxmatchilaridan biri bo'lib oldi.

### **O'ZBEKISTON IFTIXORLARI**







## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

121



Qishki ta'til kunlari Saydali qishloqdagi buvisinikiga dam olgani ketdi. Ta'til tugashi arafasida uyiga qaytib, darhol to'garakka keldi. To'garakdoshlari uni o'rab olishib, ta'til kunlari boshqa shahardan kelgan bir bola hammani yutganini aytishdi. Hozir kelib qoladi, uni yutmasang shaharga borganda Chirchiqdagi hamma bolalarni yutdim, deb maqtanib yuradi,— deyishdi. Yangi raqib bilan yuzma-yuz otirgan Saydali butun fikri-zikrini jamladi, har bir yurish oldidan uzoq o'yladi. Nihoyat, ko'p qarshilikdan keyin mehmon bola yutqazganini tan oldi. Barcha sheriklari xursand bo'ldi.





Saydali ham g‘alabadan, ham o‘z to‘garagi sharafini himoya qilganidan shod edi. Bu tuyg‘u keyingi musobaqalarda ham g‘alabaga da‘vat etib turdi.

O‘quvchilik yillarda Saydali shaxmatdan tash-qari dzyudo, erkin kurash va basketbol to‘garaklariga ham qatnashdi. Lekin shaxmat uning jon-u dili edi. U tabiatshunoslik, tarix va geografiya fanlarini yaxshi ko‘rardi. Darslarda mamlakatlar, shaharlar to‘g‘risidagi savollarga burro-burro javob qaytarardi. O‘sha vaqtarda keyinchalik shaxmat tufayli ana shu mamlakatlarga, shaharlarga borishi yetti uxbab tu-shiga ham kirgan emasdi.


122

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI




123

Toshkentda o'quvchilar o'rtaida respublika musobaqasi bo'ldi. Saydali bu musobaqada g'olib chiqdi. Unga chinni lagan sovg'a qilishdi. Uyida Saydalining ilk g'alabasi sharafiga palov qilindi. Osh esa ana shu mukofot laganga suzildi. O'sha-o'sha Saydalilar oilasida mas'uliyatlari o'yin oldidan yoki u musobaqadan muvaffaqiyat bilan qaytgan kunlarda shu lagandan osh yeyish an'anaga aylandi. Ha, Saydali oldin yoshlari, keyin kattalar o'rtaida respublika championi bo'lgan kunlarda bu lagandan mazza qilib osh yedi.

1992- yilda Osiyo qit'asida joylashgan Manila





shahrida o'tkazilgan o'ttizinchi jahon shaxmat olimpiadasida ilk bor mamlakatimiz terma jamoasi ham ishtirok etdi. Musobaqaning ochilish marosimida yuzdan ortiq davlatlardan kelgan mingga yaqin shaxmatchilar, ustozlar saf tortdi. Ular orasida faqat bitta yigit o'zbek do'ppisini kiyib mag'rur turardi. U Saydali Yo'ldoshev edi. Saydali ana shu olimpiadada gruziyalik mashhur grossmeyster Gennadiy Zaychikni yutganda hamma unga qoyil qoldi. Uning bu g'alabasi jamoamiz kumush medal olishiga katta ulush qo'shdi.

Ana shu mas'uliyatli musobaqa kunlarida Saydali ko'p narsani va mamlakatimiz sharafini munosib

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



125

himoya qildi. Osiyo championatlarida terma jamoamiz oltin, kumush va bronza medallarini qo'liga kiritdi. Bu ulkan yutuqlarga erishishda Saydalining mahorati qo'l keldi.

1996-yili Yerevanda bo'lgan jahon shaxmat olimpiadasida Saydali 14 marta o'ynab, birortasini ham yutqazmadi. Qancha-qancha mashhur grossmeysterlarni mag'lubiyatga uchratdi. To'plagan ochkosiga ko'ra hammadan o'zib ketib, olimpiadaning oltin medali bilan taqdirlandi. Xalqaro shaxmat federatsiyasi bu muvaffaqiyati uchun unga xalqaro grossmeyster unvonini berdi.

O'sha Yerevanda o'tkazilgan Olimpiadada qiziq





voqeal bo'lgandi. Bitta davlat vakili o'yin oldidan uni chekkaga chaqirib:

—Agar bugun bizning shaxmatchi bilan durang o'ynasangiz, sizga katta pul beramiz,—dedi. Saydali g'alati bo'lib ketdi. Chunki bu taklif unga g'ururingni sot deyish bilan baravar edi.

—O'zbekning g'ururi puldan, boylikdan baland turadi, — dedi u va o'yin bo'ladigan zalga qarab yurdi. O'sha kuni ham navbatdagi g'alabaga erishdi.

Bular kechagi gaplar. Saydali Yo'ldoshev musobaqadan bo'sh paytlari farzandlari bilan birga bo'lishni yaxshi ko'radi. O'zi o'g'il-qizini bog'chaga olib borib, olib keladi. Ularni erkabal ko'targanda, o'g'il-qizi havas bilan ko'kragidagi „O'zbekiston belgisi“ nishoniga tikilishadi, jajji qo'llari bilan nishonni silab qo'yishadi. Shunday kezlarda u beixtior o'nya toladi. U ham kechagina bola edi, bu kun O'zbekiston farzandi bo'lib jahon kezmoqda, hamma joyda yurtimiz sharafini munosib himoya qilmoqda. Bu mukofot ana shu mehnatlari samarasini ekanligini o'ylab, bolalariga mamnun jilmayib qaraydi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport  
Ikkinchi jahon urushi bo'yayotgani  
sababli 1940-yilda 12-Olimpiada,  
1944-yilda 13-Olimpiada  
o'tkazilmadi. Bu davrda qishki  
Olimpiadalar ham tashkil etilmadi.  
sport • sport • sport • sport • sport

127



# IRODA TO'LAGANOVA



1982- yil 7- yanvarda Toshkentda tug'ilgan. 9 yoshidan boshlab tennis bilan shug'ullana boshlagan. Butunjahon o'smirlar o'yinida ishtirok etib, juftlik musobaqasida 3-o'rinni egallagan (1998, Moskva). „Uimbldon“ turniri yoshlar musobaqasining final qatnashchisi (1998, London). „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan.

128

O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

129



## **KELING, TANISHAYLIK...**

Balki o‘zimni tanishtirishimga hali ertadir, a?

Bilasizmi, dunyoda shu ikkilanishdan yomoni yo‘q-da. Ikkilandingizmi, tamom—g‘ayratingiz susayadi. Bo‘sashib qolasiz. Natijada g‘alabani qo‘ldan berasiz. Bunday paytda: „Men zo‘rman, yo‘limdagi hamma to‘siquarni yengib o‘taman“, deb ahd qilishingiz befoyda bo‘ladi. Men bu gaplarni bekorga aytayotganim yo‘q. Hammasini boshimdan o‘tkazganim uchun gapirayapman. Gohida shu mashg‘ulotlarga bormasammi, ko‘chada dugonalarim bilan mazza qilib o‘ynab yursammi, deb o‘ylab ham qolaman. Keyin ko‘z o‘ngimga tennis maydonida chaqqon harakat qilayotgan, qaddi-qomati kelishgan dugonalarim kelardi. Yoshi bizdan katta qizlar esa tez-tez chet ellarga borib kelishar, ko‘rganlarini bizga gapirib berishardi. Ularga havasim kelardi. Qachon men ham boshqa mamlakatlarga borarkanman, deb o‘ylardim. O‘ylardim-u, hech qachon tennisni tashlamayman deb ahd qillardim. To‘g‘ri-da, ko‘chada bekorga vaqtini o‘tkazishdan nima foyda? Qaytaga sport bilan shug‘ullangan odam sog‘lom o‘sadi, qaddi-qomati ham tik bo‘ladi. Ko‘plab mamlakatlarni ko‘radi, do‘stlari ko‘payadi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


So'ngra yana bir gapni aytay, odam qaysi sport turi bilan shug'ullansa, o'sha sport turining tarixini yaxshi bilishi kerak. Bir gal mакtabda dugonalarim menga tennis haqida savol berishganida, javob berolmay uyalib qolganman. O'n kuncha kitob titkiladim. Qarang, odamning vatani bo'lganidek, har bir sport turining ham o'z vатани bo'lar ekan. Bilasizmi, tennis qachon paydo bo'lган? Bundan 700 yil muqaddam — Italiyada. Dastlab koptok movutdan yasalgan bo'lib, qo'l kaftlari bilan urib o'ynalgan ekan. Oradan 300 yil o'tgandan keyingina raketka ixtiro qilinibdi. Tennis



ishqiboz Uing-fild 1894-yilda o'yining hozirgi shaklini butun dunyoga tarqatgan ekan. Yana bir gap, tennis uchun eng muhimi o'yin maydonidir. Uning bo'yi 40 metr, eni esa 20 metr bo'ladi. Raketkaning og'irligi: bolalarniki 255 grammdan 340 grammgacha, kattalarniki 340 grammdan 400 grammgacha. Koptok esa 56,7 gramm.

Bularni nima uchun aytayapman? Tennischi o'z kuch va imkoniyatini o'sha maydon-u grammlarga teng taqsimlay olishi kerak. Taqsimlashning esa o'zi bo'lmaydi. Sizga aytsam, men zo'r bo'lish uchun har kuni besh soat tennis o'ynayman. Bundan

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

tashqari chopaman, gimnastika qilaman, tosh ko'taraman, mushaklarimni pishitaman. Endi besh soatni 360 kunga ko'paytiraylik-chi? E-he!..

133

Ana shu harakatlarim bilan hozircha jahon yoshlari orasida 7- va 15- o'rnlarda borayapman. Hamma orzu- o'ylarim hali oldinda. Shvetsiyalik 1-raketka ustasi Martina Xingli, ispaniyalik 3-raketka ustasi Maya Korle darajasiga yetishni orzu qilaman. Hozir Toshkentdag'i 220-maktabning 11- sinfida o'qiyapman. Baholarim yaxshi va a'lo.

Albatta, har qanday sportchi ustozsiz, o'zicha „zo'r“ bo'lolmaydi. Murabbiylarim To'lqin Shomirzayev, Nina Prokofyeva, Vladimir Anatolyevich men uchun bamisol suyanch tog'laridir.

Menga kuch va quvvat bag'ishlayotgan yana bir narsa O'zbekistonning tennis vataniga aylanib borayotganidir. O'rta Osiyodagi birorta mamlakatda bizdagidek tennis kortlari yo'q. „Prezident kubogi“ kabi katta xalqaro musobaqa Osiyoda faqat bizdagina o'tadi.

Hozircha aytmoqchi bo'lgan gaplarim shu. Yana uchrashguncha...






134




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport  
14-Olimpiada 1948-yil Londonda  
o'tkazilgan.  
O'sha yili Sen-Morissa 5-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tgan.




# MIRJALOL QOSIMOV



1970- yil 17- sentabrda tug‘ilgan.  
Toshkentdagи 179-maktabda o‘qigan.  
O‘smlirlar o‘rtasida jahon championi.  
Yoshlar o‘rtasida Yevropa championi.  
O‘zbekiston championi.  
Osiyo o‘yinlari g‘olibи.  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustasi.


## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

137



## **YAXSHI FUTBOLCHI BO'LISH OSONMI?**

Bolalar, siz mashhur futbolchi Mirjalol Qosimovni yaxshi bilasiz. Uni mamlakatimizda hamma taniydi. Ayniqsa, bolalar uning nomini havas va iftixor bilan tilga olishadi.

Ko'pchilik bolalar unga o'xshab mashhur futbolchi bo'lishni orzu qilishadi. Lekin buning uchun nima qilmoq kerak?

Otasi, Qo'shoq akaning hikoyasi:

—O'z farzandida qanday iqtidor borligini, nimaga qiziqish kuchliligini anglash ota-onaning burchi. Biz ham yoshligida Mirjalolda futbolga havasi borligini sezdik. Dars qilganda ham stoli tagida oyog'i bilan koptok o'ynab o'tirardi. Uning harakatlarini kuzatib yurdim. O'zicha mashq qilganda ham, tengqurlari bilan o'ynaganda ham bor vujudi bilan, astoydil o'ynardi. Bu meni umidlantirdi. Kimki ishga astoydil, jon-jahdi bilan yopishsa, undan natija chiqadi. Uni Toshkentning Oqtepasidan Qoraqamish dahasidagi Chig'atoy futbol maktabiga olib bordim. U yerdagi murabbiylarga shunday dedim:




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

— „Qiziqishi yaxshi, bir-ikki oy mashq qilib ko'rsin. Futbol o'ynash oson deb o'yagan bo'lsa, tashlab yuboradi. Agar chidasa, davom ettiradi.“

139

Shundan keyin Mirjalol hayotida o'zgacha kunlar boshlandi. Ertalab maktab, darslar. Tushdan keyin tramvaya o'tirib mashqqa boradi. Kechqurun mashqdan horib, charchab kelib, dars tayyorlaydi. Bu tartib yosh bolaga og'irlik qilishi mumkin edi. Qolaversa, kechqurun charchab uyg'a qaytayotganda ko'chada o'ynab yurgan o'rtoqlarini ko'rganda futbolni tashlab yuboray derdi-yu, yana chidardi.





Chunki u futbolchi bo'lishga ahd qilgan, bu yo'lda har qanday o'yin-kulgidan kechishga rozi edi.

U chidamlili, tirishqoq edi. Necha bor musoba-qalardan oyoqlari ko'karib, badani momataloq bo'lib qaytgandi. Kechqurun uncha bilinmagan og'riq, ertalab zo'rayib, oyoqlari shishib ketardi. Yurolmay qolgach, uyda o'tirgan joyida boshi bilan mashq qilar, devorga doira chizib, doiraga koptokni tushirishga intilardi. Uning bugungi yutuqlarining

140

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

141



asosiy sababi  
qat'iyatliligi-  
dandir.

Otasi har kuni  
futbol maktabiga  
borib kelishga  
yetadigan pul  
berar edi. Kun-  
larning birida u  
pulini yo'qotib  
qo'yib, 15 cha-  
qirimcha yo'lni  
piyoda bosib,  
kech qorong'i  
tushganda uyi-  
ga kirib keldi.

Shunda ham futbolni tashlamadi. Mashqlardan qay  
paytda qaytmasin dars tayyorlashni unutmasdi,  
chunki otasi unga: „Yomon o'quvchidan hech  
qachon yaxshi futbolchi chiqmaydi“— deb  
uqtirardi.

U maktabni bitirdi, futbol maktabini ham  
tamomlab, Jismoniy tarbiya institutiga o'qishga kirdi.  
O'n yetti yoshidan „Paxtakor“da o'ynay boshladi.





Uning o‘yinlari millionlab ishqibozlarni o‘ziga rom etdi. Mirjalolga o‘xshab jarima to‘pi, burchak to‘pi tepadiganlar yo shunga havas qiladiganlarning son-sanog‘i yo‘q. Lekin bunga osonlikcha erishib bo‘lmashdi. Mashq payti burchakdan to‘p tepish yo jarimadan zarba berishni yuz martalab takrorlardi. Hatto mashq tugab, bolalar ketgach ham u mashqini davom ettiraverar edi. Mehnatlari zoye ketmadi. Uni sobiq SSSR terma jamoasiga qabul qilishdi. U bu jamoa-dagi yagona o‘zbek futbolchisi edi. To‘g‘risi, o‘scha paytlarda bunday terma jamoada o‘ynash hamma yosh futbolchilarning orzusi edi. Lekin eng kuchlilargina terma jamoaga qabul qilinardi. Mirjalol 1987-yil o‘smirlar o‘rtasida jahon championi bo‘ldi. O‘sanda unga „Oltin medal“ ni mashhur futbol qiroli Pelening o‘zi topshirgan edi. 1988- yilda esa Mirjalol yoshlar o‘rtasida Yevropa championi nomini oldi.

Mana, 10 yildan oshdiki u „Paxtakor“ ning ham, terma jamoamizning ham eng tajribali o‘yinchisi, ham sardori. U bir bor O‘zbekiston championi bo‘ldi, bir marta „Kumush medal“ sovrindori, ikki bor yilning eng yaxshi o‘yinchisi deb topildi, mam-lakatning eng ko‘p to‘purari bo‘ldi. 1994-yilda

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

O'zbekiston terma jamoasi Osiyo o'yinlari g'olib bo'lishida Mirjalolning xizmatlari katta. 1993- va 1997- yillarda mamlakat kubogini qo'lga kiritdi.

143

Unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi unvoni berilgan, yana u „Shuhrat“ medali bilan mukofotlangan.

Mirjalol bolalarni yaxshi ko'radi. Bo'sh vaqt bo'ldi deguncha, „Paxtakor“dagi yoki o'z mahallasidagi bolalarga futbol sirlarini o'rgatadi. Kim biladi, ertaga ular ichidan yangi Mirjalollar chiqib, o'zbek futboli dovrug'ini yana olamga taratar.



## BILIB QO'YGAN YAXSHI

Futbol so'zi inglizchadan kelib chiqqan. Ingliz tilida „fur“ so'zi oyoq, „bol“ so'zi to'p ma'nosini anglatadi. Zamonaviy futbol qoidalari 1863-yilda Angliyada qabul qilingan. Vatanimizda birinchi futbol jamoasi 1912-yilda Qo'qonda tashkil etilgan.





144

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI









## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport sport sport sport sport  
sport sport sport sport sport  
sport sport sport sport sport  
sport sport sport sport sport  
sport sport sport sport sport  
sport sport sport sport sport  
sport sport

15-Olimpiada 1952-yil Xelsinkida  
o'tkazilgan. O'sha yili Osloda 6-  
qishli Olimpiada bo'lib o'tdi.








## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

# BAHROM AVAZOV



1970-yil 3-yanvarda G'uzor tumanidagi Siyroq qishlog'ida tug'ilgan. Milliy kurash bo'yicha xalqaro miqyosdagi sport ustasi. Amir Temur va Pahlavon Mahmud xotiralariga bag'ishlangan xalqaro musobaqalarning mutlaq g'olibi.





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


149



### ***AFSONALAR YARATAYOTGAN POLVON***

Syroq va uning atrofidagi qishloqlarda to'yalar kurashsiz, ko'pkarisiz o'tmaydi. Bahromning otasi ham, bobosi ham polvon edi. Ular to'yga borishsa, sovrin olmay qaytishmasdi. Yosh Bahrom mana shunday katta kurashlarni, ko'pkarilarni ko'rib ulg'aydi.





Amakisi esa kurashni yaxshi ko'rardi. Bo'sh qoldi deguncha Bahromni tengdoshlari bilan kurashga solib zavqlanardi. Bahrom shu tariqa bolalikdan chiniqib o'sdi. U to'yda kurash tushib, birinchi sovrin olganda 3-sinfda o'qirdi.

Nega Bahrom o'sha kuni boshqa tengdoshlaridan zo'r chiqdi? Chunki u bolalarmi kuchli, baquvvat qiladigan chillak, olib qochar, zuv-zuv, quvlash-machoq, mushuk-sichqon kabi o'yinlarni boshqa-

150

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

151



larga nisbatan yaxshi o'ynardi. Lekin o'yinga, kurashga berilib ketib, dars tayyorlashni unutib qo'ymasdi. Tabiatshunoslik, botanika, zoologiya, anatomiya, geografiya fanlaridan faqat „5“ baho olardi. Jismoniy tarbiya darslarini esa har doim orziqib kutardi.

Bola boshdan deganlaridek polvon bo'lish uchun murg'aklikidan shug'ullanish kerak. Bahrom ham kattalarning gapiga qulq solib, 12 yoshidan boshlab ertalabslari mashq qilishga kirishdi. U avvaliga





terlaguncha yugurib, so‘ng mashqqa o‘tardi, har xil toshlarni ko‘tarardi, o‘zi yasagan qo‘lbola turnikda tortilardi. To‘ylarda polvonlar ishlatgan usullarni eslab, ularni xayolan takrorlashga urinib ko‘rardi. Endi Bahrom har qanday kurashda tengdoshlari kuragini yerga tekkizadigan bo‘ldi.

Bahrom 9–10- sinflarda uyidan ancha uzoqda joylashgan maktabga qatnab o‘qidi. Boshqa sinfdoshlari maktabga avtobusda, mashinada qatnardi. U bo‘lsa maktabgacha yugurib borardi. Shu bahona bo‘lib, 9 - sinfdaligidayoq yugurish, kurash bo‘yicha G‘uzor tumani birinchiligiga taklif qilindi. Yugurish bahsida sport maktabining chopqir bolalaridan ortda qoldi. Kurash musobaqasida esa uchinchi o‘rinni egalladi. Shu kundan Bahrom Qarshi pedagogika institutining jismoniy tarbiya fakultetiga o‘qishga kiring uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rishga kirishdi.

Institutga kiruvchilar suzish, yugurish, balandlikka sakrash, yadro uloqtirish kabi sport turlari bo‘yicha sinovdan o‘tkazilishi ma’lum. Bahrom mana shu sport o‘yinlari bo‘yicha mutnazam mashq qildi. Botanika, zoologiya, anatomiya, biologiya darslarini qayta-qayta qunt bilan o‘qidi. Adabiy qahramonlarga bag‘ishlab insholar yozdi. 10-sinfning to‘rtinchi

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

153



choragida kurash bo'yicha G'uzor tumani birinchiligidagi g'olib chiqib, uchinchi toifali sportchi talabini bajardi.

Ikki yillik tayyorgarlik bekor ketmadi. Bahrom Qarshi pedagogika institutining jismoniy tarbiya fakultetiga o'qishga kirdi. Noil Husniddinov, Vadim Malkov kabi tajribalari murabbiylardan kurash sirlarini o'rgandi. Mashq zalida iloji boricha ko'proq shug'ullanishga harakat qildi. U 1988-yilda yoshlar o'rtasida Qarshida o'tgan musobaqada g'olib chiqib,



respublika championi bo‘ldi. Ammo katta g‘alabalar hali oldinda edi.

Kurashga ko‘p tayyorgarlik ko‘rgan, mahorati baland polvon bellashuvda g‘olib chiqishi aniq. 1991-yil Miroqi shaharchasida tashkil etilgan musobaqada ana shunday bo‘ldi. Bahrom bellashuvda o‘zidan ikki baravar og‘ir, gavdali Davron polvon Qalandarovni yiqitdi.

Shunday voqeа 1995-yilda alloma at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan musobaqada ham yuz berdi. Bu gal Bahrom og‘irligi 145 kilogramm bo‘lgan O‘rol polvon To‘rayevni yengdi. O‘rol polvon tanti, mard kurashchi ekan. Bahromni quchoqlab ko‘tarib, g‘alabasi bilan tabrikladi. O‘shanda Termizdagи „Alpomish“ o‘yingohida 10 mingdan ziyod tomoshabin oyoqqa turgancha ikki polvonni rosa olqishladi.

Garchand Bahrom ushbu ikki musobaqaning asosiy bellashuvlarida g‘olib chiqmagan bo‘lsa-da, bu g‘alabalar milliy kurashga mehrini oshirdi, o‘z kuchiga ishonchini mustahkamladi. 1996-yilda Shahrisabzda Amir Temur xotirasiga bag‘ishlangan katta musobaqa o‘tkazildi. Birinchi kun Bahrom vazni 90 kilogrammgacha bo‘lgan polvonlar bellashuvlarida g‘olib chiqdi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

Musobaqaning ikkinchi kuni mutlaq championatda ishtirok etdi. Unda og'irligi 110, 120, 130 kilogramm bo'lgan polvonlar ham kurash tushadi. Bahrom o'sha kuni barcha raqiblarini yengib, champion bo'ldi va O'zbekiston Prezidenti sovg'asi – „Neksiya“ avtomobili bilan taqdirlandi.

1998 - yil Xivada Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan to'rtinchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Uning mutlaq championatida Bahrom Avazov yana yuksak g'alabaga erishdi. Bu g'alabasi uchun unga xalqaro miqyosdagi sport ustasi unvoni berildi.

Yurtimizda Pahlavon Mahmud, Ahmad polvon kabi kuragi yerga tegmagan kurashchilar voyaga yetgan. Bahrom polvon ana shunday dunyo tan bergen mashhur kurashchilarimizning munosib vorislaridan biridir. Bo'lajak jahon musobaqalarida unga hamisha omad kulib boqadi, deb umid qilamiz.

### BILIB QO'YGAN YAHSHI

Kurash – sportning eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Har bir xalqning o'z milliy kurashi bor. Har bir kurash turining o'z nomi, o'z qoidalari bor. Ana shu kurashlar orasidan faqat to'rt turi dunyoga



*mashhur*. Bular—erkin kurash, yunon kurashi, dzyudo, sambo. Lekin ular o‘rtacha 70–100 yillik tarixga ega.

Bizning milliy kurashimiz esa ming yillik tarixga ega. Mamlakatimiz mustaqil bo‘lgach milliy kurashimizga e’tibor kuchaydi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan „Amir Temur“ va at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro musobaqalar tashkil etildi. G’oliblarga Prezidentimiz sovrinlari topshirildi.

1998-yil 6-sentabrda 28 mamlakat vakillari o‘rtasida o‘tgan yig‘ilishda milliy kurashimiz mustaqil sport turi sifatida tan olindi. O’sha yili Toshkentdag‘i „Jar“ stadionida birinchi marta yirik xalqaro turnir o‘tkazildi. Unda Amerika, Angliya, Turkiya, Rossiya, Gruziya, Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlar polvonlari qatnashdi. Ana shundan so‘ng Xalqaro kurash Assotsiatsiyasi tuzildi. Uning faxriy Prezidenti etib yurtboshimiz Islom Karimov saylandi.

Xalqaro kurash Assotsiatsiyasi 1999 -yilning may oyida Toshkentda birinchi jahon Championatini o‘tkazishga qaror qildi.

Shunday qilib, „kurash“ degan so‘z butun dunyo xalqlari tilida jaranglaydigan bo‘ldi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport•sport•sport•sport sport  
16-Olimpiada 1956-yil Melburn va  
Stokgolmda o'tkazilgan.  
O'sha yili Kartina-d-Ampezzoda  
7-qishki Olimpiada bo'lib o'tgan.  
sport•sport • sport•sport • sport•sport



# DAVRON RO'ZIMUHAMEDOV



1961-yil 29-sentabrda tug'ilgan. Toshkentdagi 148-maktabda o'qigan. Ot sporti bo'yicha Xalqaro sport us-tasi. Jahon kubogi egasi (1998-y.). O'zbekistonning bir necha bor chempioni.



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

159





## CHAVANDOZ

Ot haqida nimalarni bilasiz? O'ylanib qol dingiz-a? To'rt oyoqli bu jonivorlar to'g'risida butun boshli dostonlar, kitoblar yozilgan. Qish pallalarida to'yalarimiz uloqsiz o'tmagan. Navro'z va hosil bayramlarida chavandozlar poyga qo'yanlar. Uchqur va baquvvat otlarga vazni baravar oltin tikilgan.

Bundan ko'rindaniki, ot sporti diyorimizda qadimdan mashhur. Ha, yoddan ko'tarilay depti, otga minib chavgon ham o'ynashgan. Yana shuni aytish kerakki, ilgari otsiz xonodon deyarli bo'lмаган. Ot uzoqni yaqin qilgan. Ammo sobiq sho'ro davrida otlarga yoppasiga qiron keltirildi. Ot asraganlarga katta soliq solindi. Natijada otlarning juda ko'p turlari yo'qolib ketdi.

Lekin bola borki, hivchinni ot qilib, u yoqdan, bu yoqqa chopishni yaxshi ko'radi. Ha, oddiy hivchin mo'jiza yuz berib, uchqur otga aylanib qolishini xohlaydi.

Biroq hamma bola ham orzuning ketidan quvmaydi. Davron esa...

U Toshkentdek azim shaharda „Otchopar“ degan

### O'ZBEKISTON IFTIXORLARI






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



161

joy va u yerda yosh chavandozlar maktabi borligini eshitib qoldi. Uydagilarga aytmadı. Otchoparni so'rabsurishtirib yo'lga tushdi. Aytsa, endigina o'n yoshga to'lgan Davronga ruxsat berishmasdi-da. Otchoparda o'ziga o'xshagan bolalar ko'p ekan. Shungami, sen kimsan, nima qilib yuribsan deb so'raguvchi bo'lmadi. Otlarni shundoq yonidan tomosha qildi. Ular bahaybat, ko'zları katta-katta, oq, tim qora, targ'il, jigarrang, qizil, e-he hamma xilidan bor edi. Davronning ko'zları yonib, otlarning peshonalaridan,





bo'yinlaridan silay boshladi. Bunaqa manzarani u faqat tushlaridagina ko'rardi.

Davronning holatini kuzatib turgan otboqar Boymat aka bola qalbidagi mehrni darrov ilg'adi:

— Yoqadimi?

— Him...

— Mengayam yoqadi, unda anovi supurgini ol-da, qarashvor. Bu otlar ozodalikni yoqtirishadi.

Shunday qilib Davron otboqar Boymat aka Musayev bilan tanishib oldi. Endi uydagilarga qayoq-qqa ketayotganini aytar, ular ham Davronning bekorga ko'cha changitib yurmaganidan xursand edilar.

Lekin Davronni darrov chavandozlar maktabiga olishmadi. U uch yil otboqarga qarashib yurdi. Bu orada otlarning hamma sir-sinoatlarini o'rgandi. Otlar ham uni tanib, ko'rganda kishnaydigan bo'lishdi.

Davron o'n uch yoshida chavandozlar maktabiga qabul qilindi. Uning qo'liga katta yoshli „Bozorchi“ laqabli otni topshirishdi. Ot qari, judayam yuvvosh edi.

Bozor bilan bo'gliq ishlar shu otning zimmasiga tushgani uchun laqabi „Bozorchi“ bo'lgan. Ammo yetovga yurardi. Davron ustozni Nikolay Yakovlevich Katkov rahbarligida to'siqlardan oshib o'tish

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI


163



mashg'ulotlarini boshlab yubordi. U otni 110 santimetrdan 160 santimetrgacha bo'lgan to'siqlardan sakratib o'tishi kerak edi.

Mashqni bajarish ko'p jihatdan chavandoz mahoratiga bog'liq bo'lardi. U otning ustida turib shunday harakat qilishi kerakki, ot uni emas, u otni ko'tarib o'tgandek bo'lsin. Ha, chavandoz to'rt oyoqli do'stini shunday ruhlantira olishi lozim.





U ana shu hech kim nazariga ilmagan yuvosh oti bilan tez kunda uchinchi bosqich talablarini bajardi. Yoshlar terma komandasiga qabul qilindi. Unga „Tavro“ laqabli boshqa ot berishdi. Unga hamma otlar qadrdon bo‘lib qolgani uchunmi, yangi „do’sti“ bilan ham tezda „til“ topishdi. Xalqaro musobaqalarda qatnashib, ikki yil orasida ot sporti ustasi talabini ham bajardi. Ana shundan keyin uni O‘zbekiston terma komandasiga olishdi. Qarang, inson o‘z orzusi yo‘lida bir umr kurashishi kerak.

164

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

ekan. Yillar o'tib u katta yigit bo'ldi. Davron akaga aylandi. Shogird edi ustoz bo'ldi.


165

1994-yili bo'lib o'tgan O'zbekiston ochiq birinchiligidagi Xalqaro sport ustasi talabini bajardi. Bu chavandozimiz uchun xalqaro musobaqalar eshiklarini oshib berdi.

U ilk marta xalqaro turnirda qatnashish uchun Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazilgan XII Osiyo o'yinlariga yo'llanma oldi. Biroq u Yaponiyaga otsiz shundoq o'zi bordi. Tartib shunaqa ekan. Otlarni olib borish mashaqqatli ish edi. Xalqaro musobaqalarda sport turlari bo'yicha otlar qur'a tashlash asosida tanlanar ekan. Qur'ada kimga qaysi ot tushsa, o'sha ot bilan musobaqada ishtirok etarkan. Qur'a qog'ozida otlarning barcha qiliqlari-yu, o'ziga xos xususiyatlari batafsil bitib qo'yilar ekan.

O'zbekistonlik chavandozning chekiga „muammoli tomonlari bor“ degan ot tushdi. Bu ot yo o'ta qaysar, yo musobaqaga yaxshi tayyorlanmagan degan ma'nolarni berardi.

—Albatta, bunday paytda har bir chavandoz o'zining ko'p yillik tajribasiga, mahoratiga tayanadi. Yana eng noqulay tomoni — chavandoz bu yangi to'rt oyoqli „do'sti“ bilan bor-yo'g'i 20 minutgina





sinov mashqlarini o'taydi. Keyin marra chizig'iga qarab yo'l oladi. Xalqaro ot sporti federatsiyasining qat'iy tartibi shu!

Davron Ro'zimuhamedovga bolaligidagi uch yil otboqarlik qilgani, jonivorlarning ruhiga kirkani qo'l keldi. To'siqlardan faqat uning otigina bexato sakrab o'tdi va sovrin oldi...

1998-yili Qirg'iziston poytaxti Bishkekda bo'lib o'tgan musobaqada „Maket“ laqabli oti bilan to'siqlardan sakratib o'tishda Qozog'iston, Qirg'i-ziston chavandozlarini orqada qoldirib, Jahon Kubogini qo'lga kiritdi.


Tinib-tinchimas chavandoz, yoshlarning meh-ribon murabbiysi shu kunlarda „Kasaba“ laqabli 9 yoshli va „Arlon“ laqabli 6 yoshli otlari bilan ishla-moqda. Oldinda ko'pgina mas'uliyatli xalqaro mu-sobaqalar kutmoqda. Shunaqa, chavandoz hamisha bedor, yo'lida bo'ladi. Senga oq yo'l tilaymiz, Davron!





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport•sport•sport•sport sport  
17-Olimpiada 1960-yil Rimda  
o'tkazilgan.  
O'sha yili Skvo-Vellida 8-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tgan.  
sport•sport • sport•sport•sport



# OKSANA CHUSOVITINA



1974-yilda Toshkentda tug'ilgan.

Olimpiya o'rinnbosarlari sport bilim yurtini tugatgan. Sport gimnastikasi bo'yicha ko'p karra mamlakat championi, Osiyo championi, 1992-yilda Ispaniya poytaxti Barselonada o'tgan Olimpiya o'yinlari championi. Xizmat ko'rsatgan sport ustasi.

168


## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

169



## DUNYOGA MASHHUR QIZ

Kattami-kichikmi har bir odam uzoq-uzoqlarga sayohatga chiqishni orzu qiladi. Uzoq-uzoqlardagi shaharlarni, daryolarni, dengiz-u okeanlarni ko'rgisi keladi. Lekin bu hammaga ham nasib etavermaydi. Oksana esa, ana shularning hammasini ko'rgan qiz. U goh samolyotda, goh poyezdda, gohida avtobusda yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, dunyoni aylanib chiqqan. Eh-he, buning uchun qancha-qancha pul kerak-ku, deb o'ylarsiz. To'g'ri, buning uchun juda ko'p pul kerak. Hisoblasangiz, million-million so'm bo'lishi mumkin. Ammo, Oksana Amerika deysizmi, Fransiyami, Yaponiya yoki Koreya deysizmi, hamma-hammasiga bepul borib kelgan.

Qiziq, qanday qilib odam butun dunyoni bepul aylanib chiqishi mumkin?! Buning siri nimadaligini bilasizmi?

Bu savolga javob topish uchun Oksana Chusovitinaning hayoti bilan tanishib chiqishga to'g'ri keladi.

Oksana uchinchi sinfda o'qir edi. Bir kuni onasi uni yetaklab, sport zaliga olib bordi. U yerda Oksana tengi qizlar, bolalar ko'p edi. Ularning harakatlarini



## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

171





ko'rib Oksana hayron qoldi. Qizlar turnikda chirpirab aylanib, havoda ikki-uch marta umbaloq oshib, xuddi qushdek ohista yerga qo'nishardi. Oksananing ularga havasi keldi. Ulardek bo'lishni juda-juda xohladi.

—Shug'ullansang sen ham ana shulardek bo'lasan,—dedi onasi unga.

—Hozir murabbiylar bilan gaplashaman, rozi bo'lishsa, seni har kuni olib kelib turaman.

Onasi murabbiylar bilan allanimalar haqida gaplashdi. So'ngra qizining yoniga kelib, shunday dedi: — Rozi bo'lishdi. Faqat birorta ham mashg'ulotni qoldirmasligimiz kerak. Sport bilan shug'ullansang, sog'lom bo'lasan, qaddi-qomating chiroyli bo'ladi. Shunday qilib, Oksana sport gimnastikasi bilan shug'ullana boshladi.

Kunlar o'tdi, kunlarni quvib oylar o'ta boshladi. Boshida qiyin tuyulgan mashqlarni endi u bemalol bajara boshladi. Uning harakatchanligi, tirishqoqligi murabbiylarga yoqib qoldi. Ustozlari uning mashqlarini diqqat bilan kuzatisharkan, bu qizcha kelajakda mohir gimnastikachi bo'lishiga ishoni-shardi. Lekin buning uchun hali ko'p mashq qilish, ko'plab sinovlarga dosh berish kerak edi. Irodasi bo'shoq bolalar bunday paytlarda sportni tashlab

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

173





174

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI


175

ketgan hollar ko'p bo'lgan. Oksana esa aksincha, qaysarlik bilan mashq qilar, ustozlari bergan topshiriqlarni bekam-ko'st bajarishga intilardi.

Intilganga tole yor deganlaridek, Oksana o'smirlar o'rtaida o'tkazilgan musobaqalarda birin-ketin g'olib chiqa boshladi. Avvaliga uni bilim yurtida hamma taniydigan bo'ldi. Keyinchalik uning nomi mahallada mashhur bo'ldi. O'n to'rt yoshida esa, mamlakatimizga tanilgan sportchiga aylandi. Uni mamlakat terma jamoasiga qabul qilishdi. Ana shundan so'ng, Oksananing dunyo bo'ylab safari boshlandi. Ko'plab xalqaro turnirlarda g'olib chiqdi. Uning g'alabalari haqida gazetalarda yoza boshlashdi. Hatto televizorda ko'p marta uning to'g'risida ko'rsatuвлar bo'ldi. Ko'cha-ko'yda ham uni ko'pchilik taniydigan, unga havas bilan qaraydigan bo'lib qolishdi.

Sportchilar o'rtaida shunday gap bor: g'alabaga erishish qiyin, lekin uni saqlab qolish undan ham qiyin. Buning sababi shundaki, ayrim sportchilar g'alabalarga erishib, ozgina mashhur bo'lishsa, boshlari aylanib manmanlikka berilib ketishadi. Manmanlik tufayli ko'p narsani yo'qotishadi. Oksana mamlakat shampioni bo'lganida, Olimpiada





o'yinlarida g'olib chiqqanida ham manmanlikka berilmadi. Qaytaga borgan sari qattiqroq mehnat qilaverdi. Ana shu kamtarinligi, tirishqoqligi tufayli uni jamoadosh dugonalari ham, sport muxlislari ham hurmat qilishadi.

Bugun Oksana mamlakatimizning eng mashhur sportchilaridan biri sanaladi. Uning nomi nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoga mashhur. Unga ko'plab mamlakatlardan tez-tez maktublar kelib turadi. Chunki, chet mamlakatlarda ham Oksananing tanishlari, dugonalari ko'p.

—Men,—deydi Oksana,—sport orqali dunyoga tanildim, ko'plab do'stlar orttirdim. Ko'plab mamlakatlarda bo'ldim. Bularning hammasiga sport orqali erishdim. Sportchi bo'lganligimdan faxrlanaman.

Bir gal jurnalistlar Oksanaga shunday savol berishdi:

—Sportchi sifatida eng baxtli, eng hayajonli kuningiz qachon bo'lgan? Bu savolga Oksana shunday javob bergan edi:

—Bunday voqealar ko'p bo'lgan, men uchun eng hayajonli, eng baxtli lahzalar—bu shohsupada turgan paytlarimda Vatanimiz bayrog'i ko'tarilib,

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





# O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



177



madhiyamiz yangragan lahzalar.

Oksana sportda o‘z orzulariga erishgan qiz. Uning yana bir orzusi bor. Kelajakda murabbiy bo‘lib, o‘zi singari championlarni tarbiyalash.





## BILIB QO'YGAN YAXSHI

„Gimnastika“ so'zining ma'nosini bilasizmi? Bu so'z yunoncha „gumnazo“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, mashq qildiraman, mashq qilaman degan ma'nolarni anglatadi.

Qadim zamonalarda yuguradiganlar, kurash tushadiganlar, balandlikka va uzunlikka sakraydiganlar, hatto qo'l jangi bilan shug'ullanadiganlar gimnastikachilar deb atalgan.

Bugungi kunga kelib, gimnastika alohida sport turiga aylandi. U ikki turga bo'linadi: sport gimnastikasi va badiiy gimnastika. Sport gimnastikasi bilan o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham shug'ullanishadi. Badiiy gimnastika bilan esa faqat qizlar shug'ullanadilar. Sport gimnastikasi bo'yicha qizlar va bolalar musobaqalari bir-biridan ozgina farq qiladi. O'g'il bolalar olti tur bo'yicha, qizlar esa to'rt tur bo'yicha musobaqaqlashadilar.

Musobaqalar paytida bajarilgan mashqlarga ball hisobida baho qo'yildi. Eng yuqori baho – 10 ball. Badiiy gimnastika mashqlari ancha sodda va nafis bo'ladi. Sportchi oldin maydonda erkin mashqlarni bajaradi. So'ngra to'p, halqa (obruch), lenta, arg'amchi va bulava bilan mashqlar bajarishga o'tadi.

Sportning gimnastika turlari bo'yicha Respublikamizda ko'plab dunyoga mashhur sportchilar bor.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI








## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport • sport • sport • sport  
18-Olimpiada 1964-yil Tokioda  
o'tkazilgan. O'sha yili Insbrukda  
9-qishki Olimpiada bo'lib o'tgan.

179







# ARMEN BAGDASAROV



1972-yilda tug'ilgan. Toshkent shahridagi 247- va 145-maktablarda o'qigan. So'ngra Chirchiqdagi sport internatida, 1987—1990-yillarda 11-ixtisoslashgan texnika bilim yurtida ta'lim olgan.


Armen Bagdasarov—dzyudochi. U Atlantada (AQSH) va Bangkokda (Tailand) o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida kumush sovrinlarni qo'lga kiritgan. Osiyo championi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



183





## SABOT VA MEHNAT SAMARASI

O‘zbekiston sporti yulduzlari orasida Armen Bagdasarovning o‘ziga xos o‘rni bor. U mustaqil Vatanimiz tarixida yozgi Olimpiada o‘yinlarining birinchi sovrindori bo‘ldi.

Armen sport olamiga dastlab oddiy havaskor sifatida kirib keldi. U yetti yoshidayoq suvda suzish bilan shug‘ullana boshladi. Uyidan anchagina olis bo‘lgan suv sporti Saroyiga qatnab chiniqdi. 50 metrli basseyn jajji bolakayga ulkan ko‘lga o‘xshab ko‘rinar edi. Mashq va matonat uni tobora tobladi.

Zafar cho‘qqilariga chiqib borish oson kechgani yo‘q. Ko‘pincha ayrim bolalar va qizlar mashq paytidagi qiyinchiliklarga bardosh berolmay sportni tashlab ketishadi. Armen esa sportning qaysi sohasiga qiziqsa, unga yurakdan, astoydil kirishib ketar edi. Dzyudoni tanlaganida ham bo‘lajak qiyinchiliklarni aniq tasavvur qila olgandi. Shunga qaramay, u sportning mana shu turi bo‘yicha shug‘ullanishni ko‘ngliga tugib qo‘ydi. Barcha bolalar kabi Armen ham zangori ekranda ko‘rsatilgan har bir musobaqani qiziqib tomosha qilib borardi. Omadni qarangki, dzyudo bo‘yicha taniqli tarbiyachi


### O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

185



Vladimir Yevgenyevich Pyatayev ularga qo'shni edi. Bir kuni Armen u kishiga niyatini ochiq aytdi. 12 yoshli o'smirning guruhga yozilishi katta voqeа edi. Chunki, respublikamizda nomi chiqqan V. Pyatayev qo'lida tarbiyalanish har kimga ham





nasib etmasdi. Oppoq kimono kiygan yoshlarning tata—gilamlar ustida yaponcha kurash bilan shug‘ullanishlari Armenni butunlay o‘ziga jalb etdi.

Aytganday, kurashning bu turini „egiluvchan yo‘l“ deb tarjima qilish mumkin. O‘tgan asrning ikkinchi yarim yilligida yaponiyalik yosh o‘qituvchi Dzigaro Kano o‘smirlar uchun kurashning yangi turini kashf etish kerak degan to‘xtamga keladi. U yaponcha kurashlarning turlari bo‘lmish djiu jdiitsu, karate, sumo kabilar asosida dzyudoni yaratadi. Yaponlarning e’tirofiga ko‘ra, unda jismoniy kuch, yuksak mahorat, shakllangan texnika mujassamlashgan.

Armen bu kurashning sir-asrorlarini qunt bilan o‘rganib borishi zarur edi. Buning uchun atrofidagi mohir kurashchilar bilan yaqindan do’slashish, ular e’tiborini qozonish ham muhim edi. Barcha boshlovchi shogirdlarga dastlab chap berish va yiqilishni o‘rgatishadi. Negaki, bu usul turli-tuman ko‘ngilsizliklarning oldini olishda qo‘l keladi. Shunday qilib, Armen dzyudo sirlarini miridan sirigacha o‘rganishdan erinmadi. Bir yil o’tmay, uni atrofidagilar tan ola boshladilar. Faqat matonat va sabot bilan yuksak pog‘onalarga ko‘tar-






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

187



lishi mumkinligiga ishongan qahramonimiz tinimsiz chiniqdi. Dzyudo kurashi san'atining ba'zi nozik jihatlarini o'rganishda u ko'p qiyonaldi. Masalan, bir oyoq bilan sakrab zarb berish usulini o'zlashtirish uchun to'rt yil mashq qilishga to'g'ri keldi. Ustozi Vladimir Yevgenyevich va katta yoshdagи yigitlar undan yordamlarini ayashmadi. Armenning xatti-harakatlari zoye ketmadi. Nazarida go'yo „sehrgarlar qulflab“





qo‘ygandek tuyulgan usulni mahorat bilan o‘zlashtirgan yosh dzyudochi musobaqalarda muvaffaqiyat bilan ishtirok etadigan bo‘ldi. Qisqasi, u yigirmata asosiy usulni mukammal o‘zlashtirmaguncha tinib-tinchimadi. Armen hatto raqiblari xayoliga keltirmaydigan usullarni ham erinmay o‘rgandi. Bularning hammasi unga omad keltirmoqda.

188

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

189

1996-yilda Amerikaning Atlanta shahrida o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida besh mamlakat o'yinchilari bilan kurashib, kumush medal olishga sazovor bo'ldi. Mamlakatimizda sportchilar mehnatini qadrlash azaliy odat. Hukumatimiz Armenni „Mehnat shuhrati“ ordeni bilan taqdirladi. Hozir Respublika ichki ishlar vazirligida sport bo'yicha yuksak malakali uslubiyatchi bo'lib ishlayotgan Armen Bagdasarov Vazirlikning pul mukofoti va „Neksiya“ avtomobilini olishga sazovor bo'ldi.

Toshkentda tug'ilib-o'sgan bu o'g'lon turlituman musobaqalar bilan dunyoning yarmini aylanib chiqdi. Sport tufayli Volodya Shmakov, Kamola Murodova, Andrey Shturbabin, Alisher Muxtorov kabi sadoqatli do'stlar orttirdi.

Armen Bagdasarov mashhur kurashchi bo'lishiga qaramay, o'ta kamtar, odamshavanda va dilkash suhbatdoshdir. Bu haqda onasi—bolalar bog'chasida ko'p yillar tarbiyachilik qilgan Rimma Mixaylovniga g'urur bilan shunday deydi:

—Armen uydagi barcha ishlarni bajarishda menga yaqindan yordam beradi. Hatto somsa pishirib, muzqaymoq tayyorlaydi. Sport bilan doim



shug‘ullanish ko‘p vaqtini olishiga qaramay, o‘rta maktabda geografiya, tarix va matematika fanlarini yaxshi o‘zlashtirgan.

Armen—yosh sportchilarning qadrdon do‘sti.

—Bu sohaga mehr qo‘yan yigit-qizlarga, eng avvalo, sabot, bardosh, tinimsiz mashq qilishni tilayman. Shundagina omad kulib boqadi,—deb maslahat beradi u.

## BILIB QO‘YGAN YAXSHI


„Dzyudo “yaponcha so‘z bo‘lib, „yumshoq yo‘l“ degan ma’noni anglatadi. Yaponiyalik kurashchi Dzigaro Kano dzyudoning asoschisi hisoblanadi. U 1882-yil Tokioda ilk dzyudo mакtabini ochgan.

Dzyudo Olimpiya o‘yinlari dasturiga 1964-yilda kiritilgan.

190

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport  
19-Olimpiada 1968-yil Mexikada  
o'tkazilgan.  
O'sha yili Grenoblda 10-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tgan.  
sport • sport • sport • sport • sport

191



I



# SERGEY VOYNOV



1978-yilning 26-fevralida Toshkent shahrida tug'ilgan. 1994-yili poytaxtdagi Olimpiya o'rinoslarini bilim yurtini tugatib, so'ngra Toshkent Davlat jismoniy tarbiya institutida o'qigan.

Nayza uloqtirish bo'yicha yoshlari o'rtasida jahon championi, Tailandda o'tgan Osiyo o'yinlari g'olib, „O'zbekiston belgisi“ nishoni sovrindori.



**O'ZBEKISTON IFTIXORLARI**





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

### SERYOJANING UCHQUR NAYZASI

193

Seryojaning otasi sport murabbiysi edi. U yosh-larga yengil atletika sirlarini o'rgatardi. O'g'lini ham bolaligidanoq o'zi bilan stadionga olib borib turardi.

Otasi Seryoja kelajakda sportning biror turi bilan shug'ullanishini juda xohlardi. Lekin o'g'li ozg'in va nimjon edi. Shuning uchun bir qarorga kelolmasdi.

Seryoja ko'proq nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulotlarini kuzatardi. So'ng bolakay ham o'zicha bo'm-bo'sh qo'lini havoga silkigan bo'lar, go'yo qo'lidan uchgan nayza ko'rinxay ketganday osmon-u falakka tikilib qolardi. O'g'li sportning bu turiga qiziqib qolganligini otasi sezdi.

Bir kuni Seryoja televizorda kinofilm ko'rib o'tirib qiyqirib yubordi:

—Ada, qarang, qarang!...

Amerikaning qaysidir yerida odamlar timsoh ovlashardi. Ularning qo'lidagi nayza Seryojaning diqqatini o'ziga tortgan edi.

—Nayza bilan ov qilisharkan-da,—dedi Seryoja hayajonlanib.

—Ha, nayza qurollarning eng qadimiysi,—deya tushuntirdi otasi. —Odamlar yirtqich hayvonlarni





uzoqdan turib nayza bilan ovlashgan. Keyinchalik esa nayza uloqtirish sport turiga aylandi.

Otasi nayza uloqtirish bo'yicha dunyoga mashhur sportchilar haqida hikoyalar aytib berardi.

Ota-bola o'rtasida bo'lib turadigan bunday suhbatlar Seryojada sportning bu turiga qiziqishini kun sayin oshirardi.

U to'qqiz yoshidayoq nayza uloqtirishni o'rGANIB oldi. Seryoja maktabdan to'g'ri stadionga—adasining yoniga borar, yengil atletikachilarga qo'shilib yugurar, balandlikka, uzunlikka sakrar, obdan qizib olgach, otishni mashq qilardi. U katta sportchilar nayza uloqtirishini ko'p kuzatardi. Nayza havoda uchib borar ekan, shuvullab ovoz chiqarardi va juda olisga borib tushardi.

Nayza havo qarshiligini yengib borayotganida ana shunaqa ovoz chiqaradi. Buning uchun u qo'l-dan kuchli zarb bilan uchib chiqishi kerak. Seryojada esa ana shu kuch yetishmasdi.

U qo'l mushaklarini chiniqtirish uchun turli og'irlilikdagi toshlarni ham ko'tara boshladi. Ilgari nayzani qo'liga olganda uning og'irligini sezardi. Asta-sekin u qushdek yengil tuyula boshladi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

—Endi musobaqalarda qatnashsang bo'ladi,— dedi otasi. Seryoja shahar, viloyat musobaqalarida g'oliblik marralarini zabt eta boshladi. Ha, ba'zan 0,5 santimetr ham katta rol o'ynardi.

195

U o'smirlar o'rtaida 81 metr-u 90 santimetrga nayza uloqtirib, O'zbekiston championi bo'ldi. Bu xalqaro musobaqalarga chiqish uchun yo'l ochildi, degani edi.

Sergey 1996-yili Avstraliyaning Sidney shahrida yoshlar o'rtaida jahon championi bo'ldi. 1998-





196

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI


197

yili esa u Tailandning Bangkok shahriga yo'l oldi. Bu yerga qirqdan ziyod mamlakatlarning eng zo'r sportchilari to'planishgan edi. Sergey endi XIII Osiyo o'yinlari g'olibi bo'lish uchun kurash olib borishi kerak. Katta stadion tomoshabinlarga liq to'la. Kim champion bo'larkin, degan o'y hammani hayajonga solardi. Ko'pchilik xitoylik sportchi birinchi o'rinni olsa kerak, deb o'ylardi.

Birin-ketin nayzalar osmonga xuddi chaqmoqdek ucha boshladi. Nihoyat navbat Sergeyga keldi. U shiddat bilan yugurib, nayzani shunday uloqtirdiki, nayza go'yo ovoz chiqarib uchgandek bo'ldi. Uchib-uchib eng uzoq masofaga borib sanchildi. Tomoshabinlar gurr etib o'rinalardan turib ketishdi.

Nayza esa hammaning nazarida oltindek tovlanardi. Rostdan ham bu Sergey uchun oltin nayza edi. Chunki bu nayza unga yana bir oltin medalni sovg'a qilgan edi. Sergey stadion o'rtasidagi shohsupanining eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Uning g'alabasi sharafiga davlatimiz madhiyasi yangrab, bayrog'imiz hilpirab yuqori ko'tarildi. Bayroqqa tikilib turib, uning qalbi g'ururga to'ldi. Quvonchdan ko'zlariga yosh keldi. U bu kunni uzoq orzu qilgan edi-da.





Nayza otish ustasi, pahlavon bu yigitni oldinda hali ko'plab katta musobaqalar kutmoqda. Uning birdan-bir orzusi Olimpiya o'yinlari championi bo'lish. Buning uchun yanada qattiq mehnat qilish kerakligini u yaxshi biladi.

## BILIB QO'YGAN YAXSHI

**Q**adimda ota-bobolarimiz nayzadan ov quroli sifatida foydalanishgan. Keyinchalik nayza harbiy qurolga, sport jihoziga aylangan. Yunonlarning qadimiylar Olimpiya o'yinlarida ham nayza uloqtirish musobaqalari bo'lgan. Nayza uloqtirish musobaqasi 3-Olimpiyadadan boshlab o'yinlar dasturiga kiritilgan.

Chexiyalik Yan Jelezni nayzani eng uzoqqa uloqtirgan sportchidir. U uloqtirgan nayza 98 m 48 sm uzoqlikka borib tushgan.

Nayzani kimda-kim 100 m uzoqlikka uloqtirsa, u dunyoda eng mashhur odam bo'ladi. Bolalar, kelajakda shunday mashhur sportchi balki Sizlarning orangizdan chiqar.


## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

•sport sport•sport•sport s  
sport•sport 20-Olimpiada 1972-yil Myunxenda  
o'tkazilgan.  
O'sha yili Sapporoda 11-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tgan.  
•sport•sport • sport•sport.



# OLEG VERETELNIKOV



1972-yilning 22-yanvarida Toshkent shahrida tug'ilgan. 1985-yilda 6-sinfni bitirib, keyin sport bilim yurtida ta'lim olgan. 1990—1994-yillarda Jismoniy tarbiya institutida o'qidi. Oleg yengil atletika bo'yicha xalqaro sport ustasi. 1993-yilda Filippinda o'tkazilgan Osiyo musobaqasi g'olib. 1994-yilda Xirosimada o'tgan XII Osiyo o'yinlarining kumush medali sovindori. Shuningdek, 1998-yili Bangkokda o'tkazilgan XIII Osiyo musobaqalari chempioni.


## O'ZBEKİSTON İFTİХORLARI






## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

201





Qimmatli bolalar! Osmonda yal-yal tovlanuvchi kamalak jilosini ko'p marta kuzatgansiz. Yetti xil rangda tovlanuvchi bu go'zal manzarani yengil atletikaga qiyos qilaman. Sababi, sportning bu turi bilan shug'ullanadigan o'g'il va qizlar o'ttacha va qisqa masofalarga yaxshi chopishi, olisga, baland likka sakrashi, yadro irq'itishi, disklarni aylantira bilishi, yoy otishni qoyillatishi shart.

Sportning ana shunday turlarida mohir usta bo'lib yetishgan Oleg Veretelnikov siz bilan yonma-yon yashashini bilmasangiz kerak. Yaxshisi bu haqda qisqacha hikoya qilib bera qolay. Toshkent dek shahri azimda Oleg ismli kamtar, ko'ngilchan bola katta buvisi Lyubov Ivanovna tarbiyasida voya ga yetdi. Biroq, bolakay o'ta nimjonligidan tash qari, teztez og'rib ham turardi. Oleg bilan buvisi bu haqda ko'p bosh qotirishdi. Xo'sh, nima qilish kerak? Ana shu savolga nabiraning o'zi javob topdi. „Buvijon tashvish chekib o'tirmay, meni sport maktabiga o'qishga berganingiz ma'qul.“ Lyubov Ivanovna Olegning so'zidan to'g'ri xulosa chiqarib, uni odatdagi maktabdan Respublika Olimpiya bilim





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

203



yurti yengil atletika bo'limiga o'tkazdi. Oleg o'rta maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq chang'ida uchish, boks va basketbol bilan ancha-muncha shug'ullanib yurganiga qaramay, sportning bu yerdagi turlari—sakrash, chopish hamda disk uloqtirishga ko'nikolmay yurdi. Bir necha marta bilim yurtini tashlab ketmoqchi ham bo'ldi. Ammo, buvisining daldasi, talabchanligi barchasidan ustun keldi. Go'yo Lyubov Ivanovna nabirasining bu sohada „qirol“ bo'lishini oldindan bilganday.





Darhaqiqat, chidam, mashaqqatli mashqlarga bardosh berish o‘z samarasini ko‘rsatdi. Oleg respublika va xalqaro musobaqalarda yaxshi natijalariga erisha boshladи. Nihoyat, XII Osiyo o‘yinlarida champion bo‘ldи. Sport olamida g‘olib chiqish oson emasligini yaxshi tushungan Oleg Veretelnikov o‘zi sevgan soha bo‘yicha shug‘ullanishdan aslo toliqmadi. U 1998-yilda Tailanddagi xalqaro o‘yinlarda O‘zbekistonning shon-shuhratini himoya qildi. Oleg ismi jismiga monand ravishda o‘qdek

204

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

205

zuvillab chopadi, to'pday sakraydi. Shuning uchun yurtdoshimiz Osiyo o'yinlarida xitoyliklar, ko'reyaliklar, qozog'istonliklarni dog'da qoldirdi. Shohsupaning eng baland joyi unga nasib etdi. Oleg bo'yniga oltin medal osilgan chog'da yuksak bir g'urur va iftixor bilan Respublikamiz madhiyasini tinglab, unga jo'rovoz bo'ldi.

Mana buni yengil atletika deyishadi. Zotan, faqat uning nomigina „yengil“, ammo bu sport turida yengil-yelpi yo'l bilan g'alabaga erishib bo'lmaydi. Bu betinim mashq, har bir qadam, har bir daqiqa uchun kurash demakdir.

Qadrli bolalar! Oleg singari sog'lom va polvon bo'lishni orzu qilsangiz stadionlar, mashq maydonlari sari oshiqing! Ular sizlarga muntazir!



### BILIB QO'YGAN YAXSHI

● *Yengil atletika sportning asosiy turlaridan biri. Unga yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'pkurash kiradi. Yengil atletika mashqlari kishini epchil, chaqqon, jasur, baquvvat qiladi, organizmini har tomonlama chiniqtiradi.*






206

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport•sport • sport•sport•sport s  
sport•sport • sport•sport • sport•sport  
21-Olimpiada 1976-yil  
Monrealda o'tkazilgan.  
O'sha yili Innsbrukda 12-qishki  
Olimpiada bo'lib o'tgan.









# YERKINBOY QUTTIBOYEV

1972-yilda Nukus shahrida tug'ilgan. 1989-yilda Nukusdagi maxsus matematika maktabini tugatgan. Shu yili Kiyev shahridagi Politexnika institutiga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagan. Talabalik chog'laridayoq boks, kikboksing bo'yicha Yevropa championligini qo'lga kiritgan. Muay-tay bo'yicha Jahon va Osiyo o'yinlari championi.


210

## O'ZBEKİSTON İFTİХORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

211



## **, „SAKKIZ QO’LLI“ JANGCHI**

Qorachadan kelgan bu chayir bola qiziquiv-chanligi va zehni o’tkirligi bilan birinchi sinf o’quvchilari orasida ajralib turar edi. U ayniqsa matemetikaga qattiq ko’ngil qo’ygandi. Boladagi bu qiziqishni ko’rgan o’qituvchi otasi Mengliboy akani mакtabga taklif qildi. U bilan suhbatlashib: „O’g’lingizni shahardagi maxsus matematika maktabida o’qitsangiz ma’qul bo’lardi“, — dedi. Bu maslahat otaga ham, og‘ilchaga ham ma’qul tushdi.

Yerkinboydagи aniq fanga bo’lgan intilishdan quvongan ota-onada unga iloji boricha shart-sharoit yaratib berishga harakat qilishdi.

Yerkinboy maxsus matematika maktabida o’qib yurgan chog’laridayoq sportning boks, kikboksing turlari bilan shug’ullana boshladi. Kunlarning birida adabiyot muallimi insonda imkoniyatlar cheksiz ekanligi, faqat o’ta irodali kishilargina maqsadlariga erishishi mumkinligi haqida so’zlab, yunonistonlik mashhur notiq, olim va faylasuf Demosfenning boshidan kechirgan voqealarni hikoya qilib berdi.

...Yosh Demosfen tug’ma kasalmand bo’lib, gapirganida tili g’o’ldirab, so’zlari og’zidan to’kilib



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

213



ketar, oqibatda nima demoqchi ekanligini atrofidagi do'stlari yaxshi tushunmasdi. Buning ustiga yelkalari to'xtovsiz uchib turardi. Demosfen ana shu nuqsonlarini yo'qotish uchun tinimsiz kurashgan. U Egey dengizi sohiliga borib, mayda toshlarni og'ziga solib, to'lqinlar shovqini ostida qadimgi she'rlarni baland ovoz bilan ifodali o'qib mashq qilardi. Bu yosh Demosfen uchun kundalik odatga aylandi. U dengiz bo'yidan to'g'ri g'orga yo'l olar va u yerda ikki yelkasiga qilich osgani holda soatlab





to‘g‘ri turishga gavdasini ko‘niktirardi. Yelkalari qimirlasa, qilich tig‘lari yalang‘och badaniga tegib, uni qonatib yuborar, bu og‘ir jarohat esa uni yanada dadilroq bo‘lishga undardi. Shu tarzda u tili va yelkalarini ko‘niktirish borasidagi mashqlarni sira bo‘sashfirmadi. Ko‘p yillik mashq o‘z samarasini ko‘rsatdi. Demosfen zamonasining yetuk faylasufi, notig‘i bo‘lib yetishdi.

Bu g‘aroyib hikoya Yerkinboyga qattiq ta’sir qildimi, haytovur, soppa-sog‘ odamlarning o‘ta

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

2



loqaydligini o'ylab, so'nggi paytlarda o'zi ixlos qo'yib yurgan boks va kikboksing bilan astoydil shug'ullanishga kirishdi. Ayniqsa, Kiiev Politehnika institutida o'qib yurgan chog'larida ham bu sport turlari bilan shug'ullanishni davom ettirdi. Bu vaqtga kelib Yerkinboy ancha tajriba orttirib, dastlab shahar championi, 1994-yilda esa Yevropa championligini qo'lga kiritdi.

1994-yildan boshlab Yerkinboy Quttiboyev Tailand sport o'yinlaridan biri bo'lgan muay-tayni





egallahsga bel bog‘ladi. Bu soha tailandcha „Sakkiz qo‘lli“ degan ma’noni beradi. Ya’ni ikki qo‘l, ikki oyoq, ikki tizza, ikki tirsakli jangchi demakdir. Yerkinboyni do‘satlari behudaga „bosqon“ deb aytishmagan ekan. Raqiblariga nisbatan ishla tiladigan bu ramziy laqabning o‘ziga xos ma’nosini bor. Mohir „sakkiz qo‘lli“ jangchi Y.Quttiboyev muay-tayni puxta egallagani sababli, 1995- yilda jahon championatida birinchi marta qatnashib, o‘n nafarga yaqin dunyoga mashhur polvonlarni yengib, „O‘zbek championi“ degan yuksak nomga ega bo‘ldi. Xususan, 1996—1997- yillarda Tailandda o‘tgan 13-Osiyo o‘yinlarida 15 nafarga yaqin shu soha bahodirlarini yengib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. O’sha kuni Bangkok shahrida O‘zbekiston madhiyasi yangradi.


Bir paytlar Nukus shahri ko‘chalarida chopqillab yurgan qoramag‘iz chayir bolakay endilikda mustaqil Vatanimizning jahonga mashhur „sakkiz qo‘lli“ pahlavonlaridan biri sifatida elda aziz bo‘ldi. „Izlanganga tole yor“ deganlari aslida shu emasmi?




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

•sport sport•sport•sport s  
 22-Olimpiada 1980-yil Moskvada  
 o'tkazilgan.  
 O'sha yili Leyk-Plesida 13-qishki  
 Olimpiada bo'lib o'tgan.  
 •sport•sport • sport•sport•sport





# RUSTAM RAJABOV



1957-yil 17-noyabrda Angrenda tug'ilgan. Shahardagi 16-maktabda o'qigan. Alpinizm bo'yicha xalqaro sport ustasi. „Everest“ cho'qqisini zabit etgan birinchi o'zbek sportchisi, „Do'stlik“ ordeni bilan taqdirlangan.



ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

219



## **, „EVEREST“GA CHIQQAN YIGIT**

Himolay tog‘larida „Everest“ cho‘qqisi bor. Uni dunyoning „tomi“ deb atashadi. Cho‘qqining balandligi naq 8848 metr. Atrofini bulutlar o‘rab olgan. Pastda esa ming yillik muz qatlamlari, qor bosgan so‘qmoqlar ko‘zga tashlanadi. „Qor malikasi“ filmini ko‘z oldingizga keltiring-da, cho‘qqini esa qor malikasining saroyi deb bilavering.

Cho‘qqini saroya o‘xshatganimiz to‘g‘ri, ammo bu yerda havo yetishmaydi. Yetishmaydigina emas, umuman nafas olib bo‘lmaydi. Cho‘qqida yil—o‘n ikki oy qor quyuni, bo‘ron guvillab turadi. To‘rt tomoni sip-silliq yaltiroq ko‘zguni eslatadi. „Everest“ cho‘qqisi ana shunday. Har qanday dovyurak odam ham yurak betlab bu cho‘qqiga chiqishga otlanavermaydi. Negaki, shu kunga qadar yer yuzida „Everest“ga chiqsa olganlar uncha ko‘p emas. Borlari ham sanoqli.

Aytmoqchi, yurak betlab borganlar ham shunchaki tog‘ga ko‘tarilgandek chiqib ketisha-vermaydi. Maxsus kislorod niqobini kiyish lozim.

### **O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI**





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

221



Yelkasidagi og'ir yukxaltadan tashqari, yana havo to'ldirilgan ballonni ham ko'tarib yo'lga chiqiladi.

Bexosdan o'yga tolishingiz mumkin. Shuncha balandlikka, havosiz cho'qqiga qiynalib chiqish shartmi? Dunyoni tanish, o'rganish — odamzotning azaliy orzusi. Bu orzu Rustam qalbidan ham o'rin olgandi. U taqdirini baland tog'lar bilan bog'lagandi.





Shu yerda biroz aniqlik kiritamiz. Dunyoda sportning turlari, nomlari ko'p. Tog'-u toshlarda yuradigan, ilmiy ish olib boradiganlarni sodda qilib alpinistlar deyishadi. Bu so'zning o'zagi alp bo'lgach, „Everest“ga alplar chiqadi-da.


O'zbek alpinistlari, esingizda bo'lsa, 1998- yilda alplar kamarini bog'lab, „Everest“ sari yo'lga chiqishdi. Ular o'n ikki kishi edi. Jamoaga tajribali sport ustasi Anatoliy Shabanov rahbarlik qildi. Ularga Oleg Grigoryev sardor edi. Bu oddiy sayohat emasdi. O'zbekistonlik alpinistlar kechagina ittifoq-dosh deb atalgan respublikalar orasida birinchi bo'lib

## ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



223

mustaqil yo'lga chiqqan edilar.

Yurtdoshlarimiz orasidan „Everest“ cho'qqisi-ga birinchi bo'lib ko'tarilish, O'zbekiston bayrog'ini dunyo „tomi“ga o'rnatish baxti Rustam Rajabovga nasib etdi. Bayroqni o'matgan daqiqada uning a'zoyi badani junbushga keldi. Quvongandan ho'ngrab yig'lagisi keldi. Charchoqni bata-mom unutdi. Izma-iz unga yetib olish uchun jamoa a'zolari kelishardi. U yakka-yolg'iz, tirma-shib cho'qqi tomon boryapti. Oralaridagi yagona ayol — O'rta osiyolik Svetlana Baskanova u bilan deyarli izma-iz kelardi. Svetlana ilgari ham bu cho'qqini zabit etgandi. Undan pastroqda Sergey





Sokolov, Oleg Grigoryev, Marat Usayevlarning qorasi ko'zga tashlanardi.

Rustamning „Everest“ cho'qqisiga yetishi oson kechmadi. Uyqusizlik o'z kuchini ko'rsatardi. Ko'zi ketib qolsa, salgina qaltis harakati halokatga aylanishi aniq edi. Suv ichish, tamaddi qilish ham qiyin edi. Tomog'ini shamollatib qo'yishi hech gap emasdi.

1998-yilning 22-may kuni Rustam hayotidagi unutilmas kun bo'lib qoldi. Xuddi shu kuni u „Everest“ cho'qqisida O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tardi. „Qor yo'lbarsi“ degan sharaflı nomga erishdi.

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





225



U cho'qqida turar ekan, negadir bolalik, o'spirinlik yillarini birdan esga oldi.

Rustam o'zi tug'ulib o'sgan Angrenni, uning atrofidagi tog'larni ko'z oldiga keltirdi. U o'n to'qqiz yoshida Bobotog' cho'qqilari sari yo'l olib, 3555 metr balandlikka ko'tarilgandi. Shu-shu tog' havosi bilan yashay boshladi. Uzoq-uzoq kengliklarga, hatto Antraktidaga sayohat qilish ezgu orzusiga aylangandi.

Rustam Rajabov „Everest“ni zabit etib, pastga





tushar ekan, uni jamoaning boshqa a'zolari 8200 metr balandlikda kutib olishdi. Ular ham „Everest“dagi boshqa cho'qqilarning „yelkasiga“ mingan edilar.

Mard maydonda bilinadi, deymiz. Alpinistlar-ning maydoni esa tog‘lar, cho'qqilardir. Eng katta maydon— „Everest“ cho'qqisi. Ana shu cho'qqida O‘zbekiston bayrog‘ini birinchi hilpiratgan baxtli yigit Rustam Rajabovdir.

Dunyo Xalqaro alpinistlar federatsiyasi tash-kilotining faxrli kitobi bor. Ana shu kitobga Rustam Rajabovning ism-sharifi ham bitildi. Tug‘ulgan joyi degan yeriga esa zarhal harflar bilan „O‘zbekiston“ deb yozib qo‘yildi.

## BILIB QO‘YGAN YAXSHI

● *Yer yuzidagi eng baland tog‘ cho'qqisi Everestdir. U Xitoy va Nepal davlatlari chegarasida joylashgan. Balandligi 8848 metr. Ikkinchini o'rinda Kashmirdagi Kodvin Auston cho'qqisi turadi. Bu cho'qqining balandligi 8611 metr.*


## O'ZBEKISTON IFTIXORLAR

22

sport•sport•sport•sport•sport•sport  
23-Olimpiada 1984-yil Los-Anjelesda o'tkazilgan.  
O'sha yili Sarayevada 14-qishki Olimpiada bo'lib o'tgan.

24-Olimpiada 1988-yil Seulda o'tkazilgan.  
O'sha yili Kalgarida 15-qishki Olimpiada bo'lib o'tgan.

sport•sport•sport•sport•sport







230

# SHUHRAT AHMEDOV



1963-yil 17-mart kuni Chirchiq shahrida tug'ilgan. 12 - Osiyo o'yinlarida 5 ta medal olgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi. „Shuhrat“ medali bilan mukofotlangan.

O'ZBEKİSTON İFTİХORLARI



## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI



231

### MERGANLAR SARDORI

Ko'pchilik bolalar ertalab: „Bog'chaga olib borib qo'ying, mакtabga olib borib qo'ying“, deb oyisiga, dadasiga janjal qilishadi. Shuhrat uch yoshidan bog'chaga o'zi borib kelardi. Intizomli, qiziquv-chan bola bo'lgani uchun bog'cha opalari uni yaxshi ko'rishardi.

Toshkentdagi 49 - mакtabning 1 - sinfiga o'qishga borganda ham shu odatini tark etmadi. O'qishini uyidan ancha uzoqda joylashgan 71-mакtabga





o'tkazishganda dadasi bilan birga ketardi. Keyinchalik maktabga o'zi mustaqil borib keladigan bo'ldi. Intizomli bo'lgani, yaxshi o'qigani uchun o'qituvchilari har doim Shuhratni dadasiga maqtashardi.

Shuhrat o'yinlarni, sportni yaxshi ko'rardи. Ularning uyi yaqinida tennis korti bor edi. Shu sababli Shuhrat uch oycha tennis bilan shug'ullandi. Bir kuni o'rtoqlari bilan basseynga cho'milgani bordi. Tiniq suvda suzish unga yoqib qoldi. Darhol suzish to'garagiga yozildi. Yarim yilcha basseynda suzishni mashq qildi.

Kunlarning birida o'qituvchisi sinfga bir kishini boshlab keldi. U merganlarning ustozи ekan. Yurtimizning mashhur merganlari, bu sport turining ahamiyati to'g'risida rosa gapirdi. So'zining oxirida: „Kim haqiqiy to'pponchadan, miltiqdan o'q otishni istaydi“, deya bolalarga murojaat qildi. Barcha bolalar „men“ deya o'rinalidan turib ketishdi.

—Sizlarni „Yosh kuch“ jamiyatining merganlik manzilida kutaman, — deb u kishi xayrlashdi.

Shu kundan Shuhrat bu haqda o'ylay boshladi. Ko'p o'tmay darsdan keyin bir-ikki sinfdoshi bilan merganlar ustozи aytgan joyni izlab, topib bordi. Merganlar ustozи Gennadiy Vasilyev ularni iliq

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI




## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



kutib oldi. U otish joyi bilan tanishtirdi, mashq paytida nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirdi. Keyin bolalarming qo'liga o'qlanmagan haqiqiy to'pponchalarimi, miltiqlarimi ushlab ko'rishga berdi. Shuhrat to'pponchanini barmoqlari bilan qisar ekan, hayajonlandi.

Avvaliga Shuhrat ham mergan bo'lish uchun miltiqlidan, to'pponchadan ko'proq otish kerak, deb o'yldi. Ustozi unga nishonni aniq ko'zlashi uchun





uyda ham mashqlar bajarishi zarurligini aytdi. Bu sohaga astoydil qiziqib qolgan Shuhrat har kuni ertalab barvaqt turib, balkonda bir nuqtaga tikilish, diqqatni jamlash, nafas olish, qo'l harakatlari kabi merganlikka yordam beruvchi mashqlarni bajara boshladi. Bu mashqlar o'z samarasini berdi. Ikki yil ichida yaxshigina mergan bo'lib oldi. Respublika o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni egalladi. Yana ikki yildan keyin yoshlар musobaqasida muvaffaqiyat qozondi. Kattalar o'rtasidagi o'yinlarda ham g'olib chiqdi.

Merganlik maskanidagi mashqlarga, musobaqalarga muntazam qatnashayotgan Shuhrat maktabda berilgan uy vazifalarini bajarishga ham ulgurardi. Ayniqsa, u matematika darslarini orziqib kutardi. O'qituvchisi topshirgan murakkab masalalarni ham bir zumda yechib, sinfdoshlarining havasini keltirardi. Bo'sh vaqtlarida bolalar qomusini qo'ldan qo'ymay o'qirdi. Bu kitobdan o'zini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob topardi. Katta ishtiyoq bilan uy ishlariga qarashardi.

Musobaqalarda harbiy kishilar bilan ko'p uchrashgani ta'sirida, Shuhrat maktabni tugatishi bilan Sankt-Peterburg shahridagi harbiy jismoniy

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI



## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

235



tarbiya institutiga o'qishga kirdi. Talabalik yillari, harbiy xizmat davrida ko'plab mernanlik musobaqalarida sovrindor bo'ldi. Meksikada o'tkazilgan jahon kubogi musobaqasida kumush medal olib, ustozlari ishonchini oqladi.

Bu davrda ko'plab rekordlarni yangiladi. Shuhratning MP-8 rusumli to'pponchadan otib, 599 ochko olganini hanuzgacha ustozni Ali Sattorov



faxrlanib so‘zlaydi. O’shanda u tangaday nishonni 25 metr uzoqlikdan 59 marta to‘g‘ri ko‘zlagandi, atigi bir marta sal qiyshiq otgandi.

Yaponiyada o‘tgan 12 - Osiyo o‘yinlaridan keyin Shuhrat Ahmedovga hammaning havasi keldi. U beshta musobaqada qatnashib, beshta medal oldi. Ko‘ksiga bitta oltin, ikkita kumush, ikkita bronza medallarini taqib, yurtimizga qaytib kelganda, kutib olishga chiqqanlar uni guldastalarga burkab tashlashdi.

Farzandlar o‘z odobi, yaxshi ishlari bilan ota-onasini xursand etishlari kerak. Shuhrat Toshkentda o‘tgan Markaziy Osiyo o‘yinlari tantanali ochilish marosimida musobaqa mash’alasini ko‘tarib, „Paxtakor“ o‘yingohida, minglab qatnashchilar, millionlab teletomoshabinlar ko‘z o‘ngida yugurganda, oyisi ham, dadasi ham undan minnatdor bo‘ldi.

Bugun mayor Shuhrat Ahmedov musobaqlarda olgan barcha medallarini taqsa, ko‘ksi oltin, kumush, bronza shodalariga to‘lib ketadi. Ular orasida bitta medal Shuhrat uchun juda qadrli. Bu „Shuhrat“ medalidir, uni yurtimiz shuhratini olamga doston qilgani uchun Shuhratning ko‘ksiga Prezidentimizning o‘zlari taqib qo‘yanlar.

236


## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

sport • sport • sport • sport • sport  
25-Olimpiada 1992-yil Barselonada  
o'kazilgan. O'sha yili Albervilda 16-  
qishki Olimpiada bo'lib o'tgan.  
sport • sport • sport • sport • sport  
17-qishki Olimpiada 1994-yil  
Lillehammerda o'tkazilgan.  
sport • sport • sport • sport • sport



# SAYDA ISKANDAROVA



1980- yil 12- martda Toshkentda tug'ilgan. 1997- yilda 110- mактабни таромолган. Shу yili Toshkent Davlat jismoniy tarbiya institutiga kиrgan. Suzish bo'yicha Xalqaro klassdagi sport ustasi. O'zbekistonning bir necha bor championi. II Markaziy Osiyo o'yinlarining kumush va bronza medali sohibi. Osiyo va Okeaniya championatining kumush va bronza medalini olgan (1998, Malayziya).

238

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI





**O'ZBEKISTON IFTIXORLARI**

239

## ***SAIDA VA „OLTIN BALIQCHA“***

Saida birinchi sinfda o'qirdi. Bir kuni o'qituvchisi sinfga notanish ayol bilan kirib keldi. U bolalarga sinchkovlik bilan qaradi-da:

—Kim oltin baliqchaga aylanishni xohlaydi, bormi orangizda shunaqlar?—dedi jilmayganicha.

—Oltin baliqchaga?

—Vuy!

Hayratdan bolalarning ko'zlarini katta-katta ochildi. Axir shunaqa bo'lishiyam mumkinmi?

Ayol shahardagi kattakon suv sporti saroyidan kelganini, u yerda „Oltin baliqcha“ nomli suzuvchilar to'garagi borligini aytdi. Xohlovchilarni taklif etdi. Borish yo'llarini doskaga chizib, tushuntirib berdi.

Saidaning yuragiga o't tushdi. U bir marta otanasi bilan Toshkent dengiziga cho'milgani borishganini esladi. Rosa maza bo'lgandi-da, o'shanda. Suvdan sirayam chiqmasam, uzoq-uzoqlarga suzib ketsam, degan edi. Biroq, ming afsuski, suzishni bilmas edi. Mana, endi suzishni ham o'rganib olsa





bo‘ladi. Nomi ham qiziq: „Oltin baliqcha!“

Saidaning to‘lib-toshib gapirishi oyisini o‘ylan-tirib qo‘ydi. Demak u suvni yaxshi ko‘radi. Bir jihat-dan bu yaxshi, sportchi bo‘lmagan taqdirda ham sog‘lom bo‘ladi, deb o‘yladi oyisi. ·

Onasi Saidani yetaklab suv shorti saroyiga olib bordi. Ulkan hovuz. Suvi shishadek tip-tiniq. Saida bunaqa shaffof suvni birinchi ko‘rishi. Bolalar shuna-qangi ko‘pki. Ular rostdan ham akvariumdagi oltin baliqchalarga o‘xshashardi. Vuy anovi bolani... Saidadan kichkina bo‘lsayam shunaqangi suzong‘ich ekanki.

Saida „Oltin baliqcha“ga haftasiga bir emas, uch marta qatnay boshladi. Ha, oyijonisini bir martagina ovora qildi. Keyingi safar o‘zi mustaqil kelaverdi. Odam bir narsani yaxshi ko‘rsa, o‘ziga ishonadigan bo‘lib qolar ekan-da.

Yillar ketidan yillar o‘ta boshladi. E-he... „Oltin baliqcha“ga qanchadan-qancha bolalar kelib ketish-di. Ammo Saida u bilan bir umrga do‘sit bo‘lib qoldi. Boshqalar suvda suzib, tashqariga chiqib dam olishardi. U bo‘lsa suzib charchamas, charchagan taqdirda ham suvda dam olardi. „Oltin baliqcha“da Saida ismli qizlar ko‘p edi. Lekin Saida Iskandarova bitta edi. Shunday deyishsa uni ko‘pchilik tanirdi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI





## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

241





Suvga tushdingmi, baliq bo‘lib ket!—ustozi Alevtina Reshetova doimo shunday derdilar. Ular suv sporti ustalari, O‘zbekistonni bir necha bor jahonga tanitgan Svetlana Babanina, Larisa Belakonlar haqida ko‘p gapirib berardilar.

Saida asta-sekin kichik musobaqlardan kattaliga o‘ta boshladi. Avval 50, 100, 200 metr masofalarga suzish bo‘yicha O‘zbekiston championi bo‘ldi. Olmotada bo‘lib o‘tgan O‘rtta Osiyo davlatlari va Qozog‘iston sportchilari o‘rtasidagi musobaqada esa birdaniga ikkita bronza medalni qo‘lga kiritdi. 1998-yili Malayziyada o‘tkazilgan xalqaro musobaqada uchta kumush medal sovrindori bo‘ldi.

Bir vaqtlar suv sporti saroyidagi kattakon hovuz ko‘ziga ulkan suv omboridek ko‘ringan bo‘lsa, endi u dengizlarni suzib o‘tishga tayyor...

Ha, hamma narsa irodaga, mashqqa bog‘liq ekan. Inson shunday mavjudotki, tirishqoq bo‘lsa baliq bo‘lib suvda suzishi, qush bo‘lib ko‘kda uchishi mumkin.

Suvda uch ming, to‘rt ming metr suzib baliq charchaydi, suvning qarshiligiga dosh berolmaydi. Tinch joy topib, orom oladi. Saida bo‘lsa bir kunda o‘n, o‘n bir ming metrlab masofani bosib o‘tadi.

## O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI







## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

Qiziq, u bir paytdagi notanish ayol aytgan „Oltin baliqcha“ga aylandimi, yo'qmi? Yo'q hali. Oldinda uni Sidney shahrida bo'ladigan Olimpiada musobaqalari kutmoqda. Saido Olimpiada championi bo'lib, oltin medal olgandan keyingina o'z niyatiga yetadi. Buning uchun yana ko'p-ko'p suzishi kerak. Saido bundan erinmaydi. Chunki mehnat qilgan odam albatta bir kun maqsadiga yetishini u yaxshi biladi...

243






244

D'ZBEKISTON IFTIXORLARI







## O'ZBEKISTONIFTIXORLARI

sport•sport•sport sport•sport  
26-Olimpiada 1996-yil Atlantada  
bo'lib o'tgan.  
18-qishki Olimpiada 1998-yil  
Naganoda o'tkazilgan.  
27-Olimpiada esa 2000-yili  
Sidneyda bo'ladi.







## MUNDARIJA

<i>So'z boshi</i>	8	Yaxshi futbolchi bo'lish osonmi?	138
Orzusi — Olimpiya chempioni bo'lish	14	Afsonalar yaratayotgan polvon	149
Boks qiroli	27	Chavandoz	160
Bayroqdar Laziz	41	Dunyoga mashhur qiz	170
Temir irodali Timur	49	Sabot va mehnat samarasi	184
Sambonering sirli olami	58	Seryojaning uchqur nayzasi	193
Andijonlik mard o'g'lon	70	Yengil atletika qiroli	202
Sport — bu mo'jiza	84	„Sakkiz qo'lli“ jangchi	212
Yengilmash Olmos	95	„Everest“ga chiqqan yigil	220
Ushalayotgan orzular	108	Merganlar sardori	231
O'zbekning g'ururi baland bo'ladi	120	Saida va „Oltin baliqcha“	239
Keling, tanishaylik.	130	Mundanja	248

SAFAR OSTONOV, ASROR MO'MINOV, TATYANA KISTANOVA,  
ERKIN MALIKOV, AHROR AHMEDOV, ALEKSANDR CHEGRINSEV, HAYDAR  
AKBAROV, TURSUNBOY ADASHBOYEV, TO'LQIN RO'ZIYEV

## O'ZBEKISTON IFTIXORLARI

*Toshkent „O'qituvchi“ — 1999*

Nashr uchun mas'ul: T. Risqiyev, S. Husnuddinov, M. Ahmatov

Maxsus muharrir S. Ostnov, taqrizchi A. Mo'minov, dizayner O. Baklikova

75.4(5U)  
M 95

Mo'minov A. va boshq.  
O'zbekiston ifixorlari // A. Mo'minov, S. Ostnov,  
T. Kistanova. Maxsus muharrir: S. Ostnov/. — T.:  
„O'qituvchi“, 1999. — 248 b.

Muharrirlar:  
Rassom R. Abdullayev, T. Adashboyev, E. Malikov  
Muova rassomi R. Zufarov  
Suratchilar: Sh. Mirsayozov  
Tex. muharrir F. Qurbonboyev, A. Risqiyev, S. Nasledov  
Musahhihlar: E.V. Vildanova  
P. A'zamova, G. Nasriddoeva

IB № 7628

Original-makeldan bosishga ruxsat etildi 07.04.99. Bichimi 60x90/8.  
Ofset qog'oz'i. Kegiz 18 shponli. Taym ET garniturasi. Ofset  
bosma usulida bosildi. Sharlii b.t. 31,0+0,5 forzas. Sharlii kr-olti  
125,0. Nashr.t. 52,74+0,82 forzas. 50000 nuxsada bosildi. Buyurtma  
№ 2014.

„O'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. Sharhnomma  
№ 15-18-99.

Kitob matni „O'qituvchi“ nashriyotining kompyuter bo'limida terilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat maibuot qo'mitasining Toshpoligraf-  
kombinati. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. 1999.

© „O'qituvchi“, 1999.

M 4204000000 — 45 axb.natl — 99  
353(04) — 99

ISBN 5-645-03471-6

Ushbu nashrda do'st barcha huquqlar muhofaza qilinadi va  
nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarini nashriyot  
rozligisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqloqlanadi.

# „O'QITUVCHI“

